

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

---

*Yusupov M.M.*

**UMUMIY PEDAGOGIKA FANIDAN SEMINAR MASHG'ULITLARI  
VA UNI O'TKAZISH METODIKASI**



**QO'QON – 2019**

---

Umumiy pedagogika fanidan seminar mashg'uloti va uni o'tkazish metodikasi bo'yicha o'quv - uslubiy qo'llanma.

Muallif: Yusupov M.M. Muqimiy nomidagi Qo'qon DPI umumiy boshlang'ch ta'lif kafedrasining 6-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va chop etish uchun tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: Isoqov Z.- Qo'qon DPI dos. f.f.n.

Taqrizchilar: O'. J. Yo'ldoshev Qo'qon DPI dos. .  
A.N. Ziyayev Qo'qon DPI katta o'qituvchi

Oliy ta'limdi seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil qilinishi ta'lif sifatining oshishiga va talaba shaxsini rivojlanisiga yordam beradi.

Oquv-uslubiy qo'llanmaga Umumiy pedagogika fanilan seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. O'quv-uslubiy qo'llanma pedagog mutaxassislar, uslubchilar va talabalar uchun mo'ljalangan.

Oquv- uslubiy qo'llanma Muqimiy nomidagi Qo'qon DPIning O'quv-uslubiy kengashining 26.06. 2019 y. 11- sonli qaroriga asosan chop etishga ruxsat berildi.

## **Kirish**

Jadal rivojlanayotgan jamiyatga pedagogik va umummadaniy ko'nikmaga ega, turli vaziyatlarda mustaqil qaror chiqara oladigan, hamkorlikka qobiliyati bor, o'zining ko'nikmalarini taqdimot qiladigan va amalga oshiradigan, o'zaro tushunish va dialogga tayyor bilimli insonlar zarur. Hozirgi kunda ta'lim tizimida bo'layotgan yangiliklar megatendensiyalar ta'sirida o'zgarib borishi, ta'lim jarayonini shaxsning ehtiyojlarini hisobga olishni, uning ilmiy-pedagogik bilimlarini rivojlantirishni, kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Pedagogik jihatdan shaxsning aniq bir yo'naliш bo'yicha atroficha bilimga ega bo'lishi va ko'nikma va malakalarining shakllanishi aynan ta'lim jarayonida bo'lib, bunda seminar mashg'ulotlari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Seminar (lotinchadan tarjimada-“ko'chatzor”) mashg'uloti – talabalar faol ishtirok etadigan ta'limni guruhli tashkil etish shakli bo'lib, o'tilganlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan ta'limning diolog ko'rinishdagi turi. Seminar mashg'ulotining asosiy vazifasi quyidagilar:

1. Ilgari olingan bilimlarni mustahkamlash vazifasi - mustaqil tayyorgarlik, muhokama qilishda va axborotlarni mashg'ulotda og'zaki suhbatlashish jarayonida.
2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish vazifasi - birinchi manbalar bilan mustaqil ishslash, referat va xabarlar tayyorlash.
3. Mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi – mustaqil izlanish, axborotlarni tanlash va qayta ishslash tufayli.
4. Intelektual faolyatni stimullashtirish (rag'batlantirish) vazifasi – aqliy va esda saqlash faoliyati tufayli.

Talabalarning faolligi va ko'rilib chiqish seminar mashg'ulotining quyidagi turlari farqlanadi:

**Klassik (an'anaviy) seminar** – muammoning muhokamasida turli nuqtai nazar ko'rib chiqilib, tayinlangan qahramonlar (6-8 kishi) o'z fikrlarini bayon

qiladilar. Odatda seminarlarning ishtirokchilari quyidagilardir: ma’ruzachi (asosiy qoida, nizom, hodisalarni, asosiy fikr bayonotini), ma’ruzachiga qo’shimsa qiluvchi (ma’ruzachining aytgan fikrlarni, qoidalarni, quvvatlaydi, ko’rsatib beradi), muxolif (boshqacha nuqtai nazar bilan yondashib, qarama-qarshi fikrlarni keltiradi), ekspert (fikr va qarama qarshi fikrlarni qiyosiy tahlil qiladi), sun’iy yo’ldan ozdiruvchi (kutilmagan misollar, “ilmoqli” savollar beradi), assisent (moddiy-texnik ta’minotni amalga oshiradi).

**Muammoli seminar** – muammoni jamoa bo’lib hal qilish, ijodiy munozara. Muammoni bir necha bosqichda ko’rib chiqiladi. 1- bosqich muammoning qo’yilishi va anglanishi, 2-bosqich muammoga echim topish uchun variantlarning yuzaga kelishi, 3- bosqich tavsiya qilingan echimni quvvatlab unga dalillar izlash, 4-echim variantlarining ko’proq ishonarlilarini tanlab olish, 5-bosqich tanlab olingan echimni tanqid qilish, 6-bosqich tanqidga dosh beradigan echimlarni tanlab olish, 7-bosqich tanlab olingan echimlarni amalda qo’llanilish yo’llarini o’ylab ko’rish, 8-bosqich muammoni hal qilish yo’llari muxokamasi 9-bosqich umumlashtirish va xulosa chiqarish.

**Reproduktiv seminar** - mashg’ulotni o’tkazish talabalarning esda saqlash qobiliyatlarini faollashtirishga, ma’ruza jarayonida o’zlashtirilganlarni eslab va qayta gapirib berish, birinchi manbalar va o’quv materiallari bilan mustaqil ishga yo’naltirilgan.

**Ijodiy seminar** - mashg’ulot talabalarning tafakkur faoliyatini faollashtirishga yo’naltirilgan, shuning uchun egallangan axborotni qayta xotirada tiklash emas balki, uni tahlil qilish, umumlashtirish, tanqidiy baholash, taqqoslash muhim hisoblanadi.

**Analitik seminar** - mashg’ulot o’tkazish darslikdagi matnni, birinchi manbalarni mustaqil o’rganishga va tahlil qilishga yo’naltirilgan.

**Evristik seminar** - mashg’ulot o’tkazish talabalarning bilimlarini vaziyatni o’zgartirishga yo’naltirilgan. Bunday seminarga tayyorgarlik ko’rishda talabalar bo’sh vaqtlarida yoki tajriba mashg’ulotlaridagi nazariy anglangan tadqiqot

natijalari asosida kichik ma’ruza va chiqish nutqi tayyorlaydilar.

**Nazoratli-umumlashtiruvchi seminar-mashg’ulot** katta mavzuning oxirida, o’quv fanining biror bo’limini o’zlashtirishga yo’naltirilgan bo’lib, bilimlarni tizimlashtirishga va yakuniy nazoratlarga tayyogarlikni shakllantirishni nazarda tutadi.

**Seminar mashg’ulotida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:**

- Ijodiy kasbiy tafakkurni rivojlantirish;
- Bilish motivasiyasi;
- O’quv ishlarda kasbiy bilimlarni qo’llash;
- Ixtisoslik fanining tilini egallah;
- Ta’riflarni, tushunchalarini, tavsiflarni taqoslash ko’nikmasi;
- Intelektual muammolarni, vazifalarni qo’yish va echish ko’nikma va malakalarini egallah, o’z nuqtai nazarini himoya qilish yoki rad etish.

Bundan tashqari, seminar mashg’uloti davomida o’qituvchi quyidagi maxsus vazifalarni hal qiladi:

- Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash
- Nazorat
- Pedagogik muloqat

Seminar mashg’ulotining o’ziga xosligi-ko’rilayotgan masalaning muhokamasida har bir qatnashchining teng huquqli va faol ishtirok etish imkoniyati. O’zining vazifasiga ko’ra seminar mashg’uloti jarayonida yoki bu fanga oid muammoning hal qilinishiga yordam beradi:

- Fanning ayrim bo’limlarini chuqurlashtirib o’rganish, bilimlarni mustahkamlash;
- Bilish metodologiyasi va metodikasining yo’llarini ishlab chiqish;
- Analistik ko’nikmalarni qayta ishlashumumlashtirish va ta’riflarni xulosalash

malakasi;

- Amliy faoliyatda ilmiy bilimlarni qo'llash malakasi;
- Qisqa, dalillar orqali va tushunarli qilib ko'nikmalarni egallash;
- O'qituvchinig ta'lim jarayonining borishini nazorat qilishi.

Seminarning uch xil turi mavjud:

- 1) Seminar haqida seminar
- 2) Seminar
- 3) Maxsus seminar-fanning biror-bir bo'limidan masalani tadqiq etish masadida chuqur o'rganish maqsadida o'tuaziladi.

Seminar haqida sesminar-seminarga tayyorlash to'g'risida bo'lib, u birinchi bosqich talabalari bilan o'tkaziladi. Bunday seminarni o'tkazishdan maqsad: talabalarni mustaqil ishlar, kerakli adabiyotlar, birinchi manbalar, ular bilan ishlash metodikasi bilan tanishtirish. Tajriba shuni ko'rsatadiki, birinchi bosqich talabalari bir qator adabiyotlar bilan ishlashni bilmaydilar va tavsiya etilgan adabiyotlarni ko'rib, qaysi biri asosiyligini ajratolmaydilar, mavzuning mohiyatidan kelib chiqib uning mazmunini chuqur sintezlash malakasiga ega bo'lmaydilar. SHuning uchun asosiy e'tiborni adabiyotlar bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga, materialni chuqur qayta ishlashga, ilmiy masalalarni hal etishda quramakashlikdan va quramakashlarcha yondashuvdan ehtiyoj bo'lishga qaratish zarur. Seminar haqidagi seminarning yana bir xususiyati shundaki, rahbarning kuzatuvi ostida ajratilgan mavzular bo'yicha referatlar tayyorlanadi, o'qiladi va muhokama qilinadi.

Oliy ta'limda 3 tipdagi seminar turi amaliyotda qo'llaniladi:

1. Ayrim fanni va u bilan chambarchas aloqador mavzuni tizimli ravishda chuqur o'rganish seminarning asosiy maqsadi hisoblanadi.
2. Fanning metodologik jihatdan qayta ishlash zarur bo'lgan muhim bir qismini yoki tadqiqtchilik ishlariga moyil qismini o'rganishga yo'naltilgan seminar.

3. Fanning biror bo'limidagi mavzuni chuqur qayta ishlash uchun tadqiqotchilik tipidagi seminar.

Seminar - o'qituvchi va talaba pedagogik muloqotining mahsulidir.

Seminar mashg'ulotida do'stona yaqinlik, ilmiy ijodiy muhit, o'zaro bir-birini tushunish bo'lganligi uchun u bir umr talabaning yodida qolishi mumkin. Bunday seminarlar ko'pincha axil jamoaning tizimli ilmiy ijodiy ishi darajasiga ko'tariladi.

Tajribali pedagoglar auditoriya ijodiy muhitni yaratish bilan birga talabalarni tayyorlangan mavzu bo'yicha sodda bayon qilishga, referatlarni tinglashga, munozaraga, baholash tasnifidagi chiqishlar qilishga yo'naltiradi. O'qituvchi talabalar diqqatini mavzuning mohiyatidan va vaziyatdan kelib chiqib munozara qilishga va baholashga yo'naltiradi. Talabalarning tasnifining sifatini (kirishib keta olishi, o'ziga nisbatan ishonch, havotirlanish) inobatga olgan holda o'qituvchi munozarani boshqaradi va rollarni taqsimlaydi. O'ziga ishonmaydigan, kirishib ketolmaydigan talabalarga engilroq, ayrim qismlar berilganda psixologik to'siqni engib o'tishni xis qiladi va o'zlarini darsda erkin tutishadi. Seminar mashg'ulotini tashkillashda birgalikdagi faoliyat, hamkorlik prinsipi amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agar topshiriqni hal etish individual bo'lmay, jamoaviy tasnifga ega bo'lsa hamkorlikdagi o'quv faoliyatida fikrlash jarayoni va bilimlar yanada samarali egallanadi. SHuning uchun seminar mashg'ulotining samaradorligi oshirishda o'quv mashg'ulotining guruhli shaklini tanlash va pedagogikanig innovasion texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqori kurslardagi seminarlar sekin-asta talabalarni biror bir ilmiy mavzu bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishlarini kuchaytirib maxsus seminarga tayyorlaydi. Bu erda ishning muvaffaqiyati ko'pincha boshqaruvchining tajribasiga bog'liq. Yuqori kurslarda olib boriladigan maxsus seminar-seminar ilk ilmiy tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanayotgan talabalarni o'zaro hamkorlik qilishlariga imkon beradi.

Ta'lif beruvchi seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda

pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanining o'ziga xosliklarini hisobga oladi:

**seminar mashg'ulotining tashkil etish shakllari:**

- 1) jamoaviy (butun guruh bilan);
- 2) guruxiy (kichik-kichik guruxlarga bo'lingan holda).

**seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish:**

**o'qituvchi:**

- 1) mashg'ulotning texnologik modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqadi;
- 2) mashg'ulot o'tkaziladigan xonani, qo'rgazmali qurollarni, tarqatma materiallar va test banklarini tartibga keltiradi;
- 3) darslik, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlardan ma'lumotlar yozadi;

**talaba:**

- 1) seminar mavzulariga tayyorlanish jarayonida: darslik, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar(gazeta va jurnallar) ustida ishlaydi;
- 2) seminar mavzulari bo'yicha talabalar ma'ruza, ilmiy axbarotlar yig'adi;
- 3) ko'rgazmali slaydlar, tarqatma materiallar, krassvord, muammoli savollar tayyorlaydi.

**- seminar mashg'ulotining o'tkazilish tartibi:**

- 1) seminar mavzusi va o'quv elementlari e'lon qilinadi;
- 2) seminar maqsadi va tashkil etilish uslubiyoti tushuntiriladi;
- 3) o'quv elementlarining muxokamalari tashkil etiladi;
- 4) savol, javoblar, muammoli vaziyatlar, test, tarqatma materiallar, krossvordlar ustida ishlanadi.
- 5) har bir o'quv elementi kirish so'zi bilan boshlanib, xulosa bilan yakunlanadi;

- 6) kitob bilan ishslash va amaliy topshiriqlar bajartiriladi;
- 7) ilg'or pedagogik va axbarot ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi;
- 8) o'z-o'zini boshqarish, baholash, ekspert saylash, ekspert xulosasini muxokama qilinadi;
- 9) talabalarni mustaqil, erkin fikrlari rag'batlantiriladi;
- 10) talaba bilimlari reyting ballar bilan baholanadi, izohlanadi va reyting jurnaliga qayd etiladi.

**- seminar mashg'ulotlari talabalarda:**

- 1) ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida pedagogik terminalogiyalarni bilib olish;
- 2) ko'rgazmalarni namoyish etish (slaydlar tayyorlash);
- 3) mashg'ulotlarning asosoiy maqsadini anglash va natijaga erishilgan muvaffaqiyatlarini sezish, taxlil etish;
- 4) o'z-o'zini boshqarish, auditoriyaga raxbarlik, ekspert vazifalarini bajarish va odilona baholash;
- 5) erkin, mustaqil va tanqidiy fikirlash malaka va ko'nikmalarini hosil qiladi.

**Eslatma:**

seminar mashg'ulotni jadval asosida belgilangan auditoriya yoki seminar mavzusining mazmuniga ko'ra muzey, ARMlarda tashkil etiladi;

- 1) seminarni tashkil etish va o'tkazishda didaktik tamoyil va qonuniyatlarga amal qilinadi;
- 2) ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or usullari: ko'rgazmali (slaydlar, plakatlar va b.), og'zaki (baxs-munozara, suxbat, savol-javob va b.), amaliy (tarqatma materiallar,krossvord, testlar ustida ishslash, pedagogik masala va mashqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni yaratish va b.) metodlardan, "aqliy xujum", "klaster", "bumerang" kabi usullardan foydalaniladi;

- 3) seminar mashg'ulotlari namunaviy va ishchi dasturlarda aks etgan mavzular bo'yicha o'tkaziladi;
- 4) o'tkazilgan seminar mashg'ulotining mavzusi guruh jurnalida aks etiriladi va imzo bilan tasdiqlanadi;
- 5) muzey va ARM larda o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlari uchun fan o'qituvchisi tomonidan dekanatga bildirishnoma yoziladi.

# SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI

## Texnologik karta

### 1-mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O'qituvchi	
<b>1-bosqich. O'quv mashg'ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni "Blis-so'rov", "Kichik esse", "6x6x6", "Ijodiy ish", "Klaster", "Sxema" va "Test" texnologiyalarining mohiyati bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. "Blis-so'rov", "Kichik esse", "6x6x6", "Ijodiy ish", "Klaster", "Sxema" va "Test" texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
<b>2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi</b>	<p>1. Blis-so'rov asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholaydi.</p> <p>2. Kartochkalar yordamida talabalar tomonidan o'quv kursining umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.</p> <p>3. Suhabt asosida talabalarning pedagogik bilimlarga egalik ahamiyatini tushuna olish darajasini baholaydi.</p> <p>4. Talabalarni kichik guruhlarga jalb qilish orqali "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmuni va mohiyati borasidagi bilimlarini tahlil qiladi.</p>	<p>1. "Blis so'rov" savollariga javob beradilar.</p> <p>2. Kartochkalar yordamida tashkil etiluvchi suhabt jarayonida faol ishtirok etadilar.</p> <p>3. Suhabt jarayonida pedagogik bilimlarga egalikning ahamiyatini tushuna olishlarini ko'rsatadilar.</p> <p>4. Kichik guruhda tarkibida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmuni borasidagi bilimlarini namoyon etadilar.</p> <p>5. Ijodiy ishlarni taqdim etish orqali pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, SHarq va</p>

<b>(55 daqiqa)</b>	<p>5. Talabalarning ijodiy ishlarini o’rganish orqali pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, SHarq va G’arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbi va pedagog shaxsi to’g’risidagi qarashlaridan xabardorlik darajasini o’ganadi hamda “Zamonaviy pedagog portreti”ning yaratilishini ta’minlaydi.</p> <p>6. Test so’rovi bo’yicha talabalarningetib, bilimlarini tekshiradi</p>	<p>G’arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbi va pedagog shaxsi to’g’risidagi qarashlaridan xabardorliklarini ko’rsatadilar va “Zamonaviy pedagog ortreti”ni yaratishda ishtirok etadilar.</p> <p>6. Test so’roviga javob qaytaradilar</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>1. Talabalarning mashg’ulotlarda ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg’ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi mashg’ulot mavzusini e’lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg’ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi ga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg’ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo’ladilar va o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

### **Mashg’ulotda qo’llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati\***

**1. “Blis-so’rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi** berilgan savollarga qisqa, aniq va lo’nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko’ra o’qituvchi o’rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va talabalarning e’tiborlariga havola etadi. Talabalar berilgan savolga qisqa muddatda, qisqa va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki

\* Ишда бир ўринда моҳиятини очиб берилган метод ва технологияларнинг мазмуни кейинги ўринларда ёритилмайди. Масалан, “Савол-жавоб” методи бир неча машғулотда кўлланилган бўлса, унинг мазмуни дастлабки машғулот (айнан бир ўрин)да ёритилади.

guruhdoshlari javobni to’ldirishlari mumkin. Biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo’llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g’oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og’zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

**2. “Suhbat” metodi** mashg’ulot jarayonida o’qituvchi va talabalar o’rtasida savol va javob shaklida tashkil etiladigan dialogik ta’lim metodi bo’lib, jonli muloqotga asoslanadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo’shimcha savollar berish hamda talabaning fikrlashga undash imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o’qituvchi va talabalar o’rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi. Mazkur metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) o’qituvchi mavzu yuzasidan talabalar o’zlashtirishlari lozim bo’lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi; 2) talabalar savollar bilan tanishtiriladi; 3) ular savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masalaning mohiyatini yuritishga kirishadilar; 4) agarda talabalarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; 5) bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o’qituvchi talabaga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo’shimcha savol beradi; 6) o’rganilayotgan masalaning mohiyati to’la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi.

**3. “6x6x6” metodi** yordamida bir vaqtning o’zida 36 nafar o’quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo’lgan 6 ta guruh o’qituvchi tomonidan o’rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o’qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo’ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o’z jamoadoshlariga avvalgi guruhni tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Mazkur metod metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.
2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhg'a bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, del'sfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, del'sfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.
3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rnlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.
5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. YAngidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhnинг har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rnlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning echimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. SHu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq echimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.
4. “**Ijodiy ish**” metodi talabalarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida talabalarning erkinigi ta'minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun


imkoniyat yaratiladi. Ular mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradilar. YAgona talab talabalar mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbothay bilishlari lozim.

**5. “Klaster” (“klaster” – g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi** puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o'ylangan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozyvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.
3. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar kyproq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

Ushbu metod yordamida talabalar topshiriq yuzasidan fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida ifodalaydilar. Masalan, estetik madaniyatning tarkibiy elementlarini klaster asosida quyidagicha ifodalash mumkin:



**6. “Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi** shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyat, ko’nikma va malakalarini tekshirishga xizmat qiladi. Ushbu metod talabalar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslарining qay darajada o’zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi. “Test” texnologiyasi quyidagicha qo’llaniladi: 1)

### **1-mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy modeli.**

**Pedagoglik kasbi va uning vazifalari**

**Mashg’ulot uchun materiallar**

#### **I. Mavzu yuzasidan topshiriq.**

Blis-so’rov savollariga javob qaytaring. Talabalarning e’tiborlariga quyidagi savollar havola etiladi :

1. O’zRning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qanday hujjat?
2. O’zRning ‘Kadrlar tayyorlash milliy dasturi’da qanday maqsad ko’zlangan?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
4. Uzluksiz ta’lim tizimi qanday ta’lim turlarini o’z ichiga oladi?
5. Pedagoglik qanday kasb?
6. “Pedagog” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

## **II. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriq.**

Kartochkalar asosida beriladigan quyidagi savollarga javob qaytaring:

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
2. “Kadr tayyorlash milliy dasturi” qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. Umumi o’rta ta’lim necha bosqichdan iborat?
4. Akademik lisey qanday muassasa?
5. Kasb-hunar kollejlarining boshqa ta’lim muassasalardan farqi nimada?
6. Oliy ta’lim bosqichlarini sanab o’ting.
7. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim qanday shakllarda amalga oshiriladi?
8. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi qanday maqsadni ko’zlaydi?

## **III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

O’zR “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning mazmunini yoriting.

Bu o’rinda talabalar “6x6x6” metodiga muvofiq tashkil etilgan kichik guruhlarda faoliyat ko’rsatadilar va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. O’zRning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi jadval yoki sxemani yarating.
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy tamoyillarini ifodalovchi sxemani yarating.
3. Uzluksiz ta’lim tizimi mohiyatini yorituvchi jadvalni shakllantiring.
4. Sxema asosida maktabdan tashqari ta’limni amalga oshiruvchi muassasalar tizimini yarating.
5. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini yorituvchi jadvalni shakllantiring.
6. Pedagogik mahoratni egallash yo’llarini yorituvchi sxemani tayyorlang.

## **IV. Talabalar uchun topshiriq:**

Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati, SHarq va G’arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbi va pedagog shaxsi to’g’risidagi qarashlarini yoriting.

“Ijodiy ish” metodi asosida tashkil etiluvchi mazkur jarayonda talabalar pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushuna olishlari hamda SHarq vaG’arb

mutafakkirlarining pedagoglik kasbi, pedagog shaxsi to'g'risidagi qarashlaridan xabardorliklarini annotasiya, sxema, jadval yoki diagramma ko'rinishida ifodalay olishlari lozim.

#### **V. Talabalar uchun topshiriq:**

Pedagogga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida aks ettiruvchi "Zamonaviy pedagog portreti"ni yarating.

Bu o'rinda talabalar "Klaster" metodidan foydalangan holda "Zamonaviy pedagog portreti"ni yaratadilar.

#### **VI. Mavzuga oid test savollari:**

1. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qachon qabul qilingan?

A) 1992 yil, iyul; B) 1997 yil, avgust; C) 1991 yil, avgust; D) 2000 yil, iyul.

2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari qaysilar?

A) ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

B) umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiylici, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi, akademik liseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriligi, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

C) ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo'lismeni va iste'dodni rag'batlantirish, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

D) barcha javoblar to'g'ri.

4. Qaysi tamoyil O'zbekiston Respublikasida ta'lim taraqqiyoti ilmiy asoslarga ega bo'lib, ilm-fan, texnika, texnologiya hamda madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini ko'zda tutadi?

A) ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

B) davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

C) ta’lim tizimining dunyoviy xarakterga ekanligi;

D) bilimli bo’lish va iste’dodni rag’batlantirish.

5. Ta’lim muassasasi nima?

A) qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko’rsatadigan yuridik shaxs;

B) pulli ta’lim xizmatlarini ko’rsatish orqali moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish huquqiga ega yuridik shaxs;

C) rivojlangan xorijiy mamlamatlarning ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish huquqiga ega yuridik shaxs;

D) ta’lim sohasidagi islohotlarni tashkil etishga mas’ul yuridik shaxs.

6. Ta’lim muassasasi pedagogik tizimining aksiologik asosini tashkil etuvchi nazariy konsepsiya asosini bir-biriga bog’liq qanday tizimlar tashkil etadi?

A) ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

B) tarbiyaviy, didaktik, ijtimoiy-g’oyaviy;

C) tarbiyaviy, didaktik, muloqot;

D) ijtimoiy-g’oyaviy, aksiologik, didaktik.

7. O’z Rda amalga oshiriladigan ta’lim turlarini ko’rsating.

A) umumiyl o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim;

B) maktabgacha ta’lim, umumiyl o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim;

C) maktabgacha ta’lim, umumiyl o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, sirtqi ta’lim, maktabdan tashqari ta’lim;

D) maktabgacha ta’lim, umumiyl o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, majburiy ta’lim, hamda majburiy-ixtiyoriy ta’lim.

8. O’z Rning “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning maqsadi qaysi variantda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) ta’lim sohasini tubdan isloh qilish;

B) ta'lim sohasini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish;

C) rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish;

D) barcha javoblar to'g'ri.

9. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysi variantda to'g'ri berilgan?

A) ta'lim jarayonining ishtirokchilari;

B) ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar;

C) ta'lim xizmatlarining iste'molchilari;

D) shaxs, davlat va jamiyat, uzlucksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.

## Texnologik karta

### 2-mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1- bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni savol-javob, “Debat”, “Muammoli vaziyatlar”, “Klaster” hamda “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi.</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. “Debat”, “Klaster”, “Muammoli vaziyatlar hamda “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar.</p>
	<p>1. Savol-javob asosida talabalarning mavzuga oid</p>	<p>1. O'qituvchi tomonidan berilgan savollariga javob</p>

	<p>tayanch tushunchalarni o'zlashtirish holatini baholaydi.</p> <p>2. Debat asosida talabalarning shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini namoyon qiladilar.</p> <p>3. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda ishtirok etib, faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o'rni borasidagi fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlarda ishslashni tashkil etish orqali talabalarning shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlarini tahlil qiladi.</p> <p>5. Talabalar ishtirokida "Shaxs va uning kamoloti" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarning yaratilishini ta'minlaydi.</p> <p>6. Test so'rovi asosida talabalarning bilimlarini tekshiradi</p>	<p>qaytaradilar.</p> <p>2. Debatda ishtirok etish orqali shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi tushunchalarga egaliklarini namoyon qiladilar.</p> <p>3. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda ishtirok etib, faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o'rni borasidagi fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlarda ishslash orqali shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlarini namoyon qiladilar.</p> <p>5. "Shaxs va uning kamoloti" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratishda faol ishtirok etib, umumiy bilimlari darajasini ifodalaydilar.</p> <p>6. Test so'roviga javob qaytaradilar</p>
	<p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil</p>	<p>1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan</p>

<b>3- bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtirokclarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>
---	--	--

### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati**

**1. “Debat” (fransuzcha “debattere” so’zidan olingan bo’lib, “debats” – “bahslashmoq”)** **texnologiyasi** yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o’rtasida o’zaro babs uyushtirish, ularning fikr almashishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O’quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi: 1) o’rganilayotgan mavzu yuzasidan babs yuritilishi zarur bo’lgan muammo tanlanadi; 2) bahslashish uchun ikki nafar talaba (yoki guruh, juftliklar)ning e’tiborlariga tanlangan muammo havola etiladi; 3) talaba (guruh yoki juftliklar)ning muammo yuzasidan fikrlari tinglanadi; 4) ekspertlarning fikrlari o’rganiladi; 5) debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi; 6) debat yakunlanadi.

**4. “Muammoli vaziyat” metodi** talabalarni o’rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o’rganish va echimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko’nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar jarayonida “Muammoli vaziyat” metodini qo’llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish; 2) muammoli vaziyat mazmuni bilan

talabalarni tanishtirish; 3) talabalarni kichik guruh yoki juftliklarga ajratish; 4) guruh yoki juftliklarning muammoli vaziyat echimini topish bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil etishlari; 5) guruh yoki juftliklar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o'z echimlarini bayon qilishlari; 6) guruhalr yoki juftliklarning echim borasidagi fikrlarini umumlashtirish; 7) guruhalr yoki juftliklar tomonidan taqdim etilgan echimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish yoki ekspertlar muhokamasidan o'tkazish); 8) eng to'g'ri, maqbul echimni aniqlash.

## **2-mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi**

### **Mashg'ulot uchun materiallar**

#### **I. Talabalar uchun topshiriq:**

Mavzuga doir savollarga javob qaytaring. Talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. "Individ" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Shaxs kim?
3. "Shaxsning rivojlanishi" deganda nima tushuniladi?
4. "Individuallik" deganda nimani tushunasiz?
5. "Shaxsga xos individual xususiyatlar" tushunchasi nimani ifodalaydi?
6. Shaxs tarbiyasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Shaxsning rivojlanishida faoliyat qanday o'rinn tutadi?
8. Shaxsning rivojlanishi uchun qanday yosh davrlari xos?

#### **II. Talabalar uchun topshiriq:**

Mavzuga doir masalalar yuzasidan debat tashkil eting.

Bu o'rinda debat uyushtirish uchun quyidagi masalalar taklif qilinadi:

Muhokama uchun 1-masala:

1. 1) o'quvchining qanday shaxs bo'lib voyaga etishida biologik omillar yuqori o'rinn tutadi;
- 2) o'quvchining qanday shaxs bo'lib voyaga etishida ijtimoiy omillar va tarbiya muhim ahamiyatga ega.

Muhokama uchun 2-masala:

1) o'quvchiga xos axloqiy sifatlar biologik xususiyatlarga ko'ra umr bo'yini o'zgarmaydi;

2) o'quvchiga xos axloqiy sifatlar ijtimoiy omillar va tarbiya ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib boradi.

Muhokama uchun 3-masala:

1) biologik xususiyatlarga ko'ra sog'lom muhitda tarbiyalanayotgan bolada ham ajdodlariga xos bo'lgan qusurlar albatta namoyon bo'ladi;

2) ijtimoiy omillar va tarbiya ta'sirida ashaddiy jinoyatchi bo'lgan shaxsning farzandlari ma'naviyatli shaxslar bo'lib voyaga etishlari mumkin.

### **III. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga doir quyidagi muammoli vaziyatlarning echimlarini toping:

1-vaziyat. Aziz oilada yolg'iz o'g'il edi. SHu sababli ota-onasi uni erkalab o'stirdilar. Aziz nimani xohlasa, ota-onasini o'sha narsani muhayyo qilardilar. Aziz yoshligidanoq kiyim-boshlarni tartibga keltirish, o'ynichoqlarni joy-joyiga qo'yish, xonasini tartibga keltirish kabi oddiy yumushlarni ham o'zi bajarmadi. Maktabga borganida ham ertalabki nonushtani tayyorlash, kiyim-kechaklar va o'quv qurollarini tartib keltirish kabi yumushlarni ham uning o'rniga onasi bajardi. Maktabda ham o'quv fanlarini yaxshi o'zlashtira olmadi, ammo ota-onasi bunga e'tiborsiz bo'lishib, "hali yosh keyinchalik yaxshi o'qir" deb o'zlarini ovutishdi. Yillar o'tdi, Aziz voyaga etib oliy ta'lim muassasasiga ota-onasining ko'magi bilan o'qishga kirdi. O'qishni ham ota-onasi yordamida tamomladi. Mutaxassis sifatida ish boshlaganida mehnat qilishga toqati yo'qligi sababli bir yilda bir necha bor ish joyini o'zgartirdi. Aziz bir joyda astoydil ishlamasa-da, ota-onasining topganlari bilan bekamu ko'st hayot kechirardi. Kutilmaganda ota-onasi avtohalokatga uchradilar va kasalxonada vafot etdilar. Dastlabki yillari Aziz ota-onasi yiqqan mablag' hisobiga kun kechirdi. Biroq, yillar o'tishi bilan bu mablag' kamaydi. Hali ham mehnat qilishga toqati etmas, ammo ehtiyojlarini "jilovlash" haqida o'ylab ham ko'rmasdi. Oson mablag' topish maqsadida o'ziga to'q xonadonlardan biriga o'g'rilikka kirdi. Ammo niyatiga eta olmay, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

1. Siz qanday fikrdasiz, shaxsda mehnat qilish ko'nikmalari necha yoshdan boshlanadi?
2. Azizning fojiasi nimada deb o'ydaysiz: yo'l qo'yilgan xatodami yoki Azizning mehnat qilishni istamaganligimi?
3. Inson mehnat qilmay yoki kasbiy faoliyat bilan shug'ullanmay kun kechirishi mumkinmi?
4. Sizning fikringizcha, hayotda mutlaqo mehnat qilishni istamaydigan kishilar ham topiladimi?

2-vaziyat. Har doim ham mehnat qilish mashaqqatli kechadi. Zero, uni tashkil etish uchun juda ko'p jismoniy yoki aqliy mehnat sarf qilinadi. Biroq, donishmandlardan biri: "Mehnat men uchun – ma'naviy ehtiyoj" degan fikrni bildirgan. Sizningcha, bu fikr to'g'rimi?

1. Nahotki mashaqqatli mehnat ma'naviy ehtiyojni qondirish vositalaridan biri bo'lsa?
2. Qanday sharoitda mashaqqatli bo'lsa-da, mehnat ma'naviy ehtiyoja aylanishi mumkin?
3. Sizning fikringizcha, mehnatning qanday turi (jismoniy yoki aqliy mehnat) ko'proq ma'naviy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi?
4. Siz ham donishmandning yuqorida keltirilgan o'gitini o'zingiz uchun shior qilib olishingiz mumkinmi?

#### **IV. Talabalar uchun topshiriq:**

Kichik guruhlarga birikkan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1-guruh: maktabgacha ta'lim yoshi bolalariga xos yosh va psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi jadval, sxema yoki klasterlarni yaratish.

2-guruh: boshlang'ich ta'lim yoshi bolalariga xos yosh va psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi jadval, sxema yoki klasterlarni yaratish.

3-guruh: o'smir o'quvchilarga xos yosh va psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi jadval, sxema yoki klasterlarni yaratish.

4-guruh: o'spirin o'quvchilariga xos yosh va psixologik xususiyatlarni aks

ettiruvchi jadval, sxema yoki klasterlarni yaratish.

#### **V. Talabalar uchun topshiriq:**

Kichik guruhlarga birikkan holda ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali “Shaxs va uning kamoloti” mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratting.

#### **VI. Talabalar uchun topshiriq:**

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob qaytaring:

1. Individ kim?

A) xatti-harakatlarini ong orqali boshqarish imkoniyatiga ega bo’lmagan biologik mavjudot;

B) xatti-harakatlarini shartli reflekslar yordamidagina tashkil eta oladigan biologik mavjudot;

C) xatti-harakatlarini shartli reflekslar hamda yuksak darajada taraqqiy qilgan ong yordamida tashkil eta oladigan biologik mavjudot;

D) xatti-harakatlarini yuksak darajada taraqqiy qilgan ong yordamida tashkil eta oladigan biologik mavjudot.

2. Shaxs kim?

A) shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi ijtimoiy mavjudot;

B) muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan ijtimoiy mavjudot;

C) psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan ijtimoiy mavjudot;

D) psixologik jihatdan taraqqiy etgan hamda ma’lum darajada ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega ijtimoiy mavjudot.

3. “Shaxsning rivojlanishi” deganda nima tushuniladi?

A) shaxsga xos bo’lgan barcha tug’ma xususiyatlarning boyib borishi, yangi sifatlarning hosil qilinishi, shuningdek, organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik funksiyalarning takomillashishi, faoliyat hamda xatti-harakatning miqdor va sifat jihatdan o’zgarib borish jarayoni;

B) shaxsga xos bo’lgan barcha tug’ma xususiyatlarning boyib borishi, yangi

sifatlarning hosil qilinishi;

C) shaxs organizmining anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik funksiyalarning takomillashishi;

D) shaxs faoliyati hamda xatti-harakatining miqdor va sifat jihatdan o'zgarib borish jarayoni.

4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) irsiyat, tabiiy muhit, ijtimoiy munosabatlar;

B) muhit, tarbiya, bilim;

C) irsiyat, muhit, tarbiya;

D) tarbiya, irsiyat, faoliyat mazmuni.

5. Inson kamolatida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynaydi degan fikrni ilk bor ilgari surgan SHarq mutafakkirining nomini aniqlang:

A) Abu Rayhon Beruniy;

B) Abu Nasr Forobiy;

C) Abu Ali ibn Sino;

D) YUsuf Xos Hojib.

6. Shaxsning rivojlanishi qanday holatlar bilan belgilanadi?

A) shaxsning fiziologik va ruhiy jihatdan kamol topishi jarayonida kechadigan miqdor o'zgarish bilan;

B) shaxsning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat va xatti-harakatlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarishlar bilan;

C) shaxsning fiziologik va ruhiy jihatdan kamol topishi jarayonida kechadigan sifat o'zgarishlar bilan;

D) shaxs kamolotida muhim o'rinn tutuvchi faoliyat ko'nikmalarining miqdor va sifat jihatdan takomillashib borishi bilan.

7. "Shaxsning individual xususiyatlari" deganda nima tushuniladi?

A) shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteriga xos, barqaror, muhim xususiyatlar;

B) shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamolotiga xos, barqaror, muhim xususiyatlar;

C) shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti hamda faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari;

D) shaxsning qiziqishlari, xarakteri, aqliy kamoloti hamda faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari.

8. Pedagogikada qabul qilingan yosh davrlarini ko'rsating:

A) go'daklik davri, bolalik davri, maktabgacha ta'lim davri, boshlang'ich ta'lim davri, o'smirlik, o'spirinlik;

B) go'daklik davri, bolalik davri, maktabgacha ta'lim davri, kichik maktab yoshi davri, o'rta maktab yoshi davri, katta maktab yoshi davri;

C) go'daklik davri, maktabgacha ta'lim davri, kichik maktab yoshi davri, o'rta maktab yoshi davri, katta maktab yoshi davri;

D) go'daklik davri, maktabgacha ta'lim muassasasigacha bo'lган davr, maktabgacha ta'lim davri, boshlan?ich ta'lim davri, o'smirlik, o'spirinlik.

9. "O'tish davri" hisoblangan o'smirlik yoshi uchun xarakterli bo'lган xususiyat nimadan iborat?

A) jismoniy faollikning ortishi, shaxsi sifatida o'zini namoyish qilishga intilish;

B) jinsiy etilish va intensiv (tezkor) rivojlanishning kuzatilishi, mustaqillik hamda o'zini namoyish qilishga intilish;

C) ijtimoiy faollik ko'nikmalarining shakllanishi, mustaqillikka intilish;

D) o'z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda baholay olish layoqatining rivojlanishi va jismoniy faollikning ortishi.

## Texnologik karta

### 3-mavzu: Tarbiya maqsadi va vazifalari

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1- bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Kichik guruhlarda ishlash”, “Nilufar gulı” va “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. “Kichik guruhlarda ishslash”, “Nilufar gulı” va “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>

<b>2- bosqich. Asosiy qism</b> – <b>bilimlarni mustahkam lash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<p>1. Suhbat asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirish, tarbiya maqsadi, mazmuni va vazifalaridan xabardorlik holatini baholaydi.</p> <p>2. “Nilufar gul” texnologiyasi yordamida ijtimoiy tarbiya turlariga oid bilimlarini namoyish etadilar.</p> <p>3. Kichik guruhlarda ishslash va “Sxema” texnologiyasi orqali tarbiya jarayonining qonuniyatlari, ustuvor tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlaridan xabardorlik darajasini aniqlaydi.</p> <p>3. Kichik guruhlarni shakllantirish hamda “Sxema” texnologiyasini qo'llash orqali talabalarning tarbiya jarayonining qonuniyatlari, ustuvor tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlaridan xabardorlik darajasini baholaydi.</p> <p>4. Talabalar tomonidan “Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari” nomli kichik esselarning yaratilishini ta'minlaydi.</p> <p>5. Test so'rovini tashkil etadi.</p>	<p>1. Suhbat jarayonida o'qituvchining savollariga javob beradilar.</p> <p>2. “Nilufar gul” texnologiyasi yordamida ijtimoiy tarbiya turlariga oid bilimlarini namoyish etadilar.</p> <p>3. Kichik guruhlarda ishslash va “Sxema” texnologiyasi orqali tarbiya jarayonining qonuniyatlari, ustuvor tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlaridan xabardorliklarini ko'rsatadilar.</p> <p>4. “Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari” nomli kichik esselarning yaratilishini orqali mavzu yuzasidan mustaqil fikrlash layoqatiga egaliklarini namoyish qiladilar;</p> <p>5) mavzuga doir test savollariga javob beradilar</p>
<b>3- bosqich. Yakuniy</b>	<p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p>	<p>1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p>


<b>qism (10 daqiqa)</b>	3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.  4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..  4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar
---------------------------------	---	--

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

1. “Nilufar guli” texnologiyasi didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan biri bo'lib, shaklan nilufar guli ko'rinishiga ega. YAgona asos hamda unga birikkan jto'qqizta “gul barg” (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan mazkur metod yordamida etakchi muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. Talabalarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan mazkur metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) hal etiladigan masala aniqlashtiriladi; 2) talabalar topshiriq mazmuni va uni echish shartlari bilan tanishtiriladilar; 3) talabalar kichik guruhalr (yoki juftliklar)ga biriktiriladilar; 4) guruh yoki juftlik a'zolari markaziy to'rt burchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g'oya, vazifa)ni qayd etadilar; 5) mazkur masala echimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta xuddi shunday yordamchi chizmalarni hosil qiladilar va ularda masalaning xususiy echimlarini bayon etadilar; 6) yordamchi shakllarda ifodalangan g'oyalarni “gulning barglari”ga, ya'ni alohida yana shunday majmuaga olib chiqadilar (o'z navbatida ularning har biri yana bir muammo ko'rinishini oladi); 7) yordamchi chizmalarda ham asosiy muammo (g'oya, vazifa) yoritilgan chizma kabi “gul barglar”da xususiy masala va echimlar aks ettiriladi; 8) o'rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin; 9) har bir guruh yoki juftliklar topshiriq

yuzasidan o’z echimlarini taqdimot tarzida bayon etadilar; 10) guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlar muhokama qilinadi va eng to’g’ri variant aniqlanadi.

Talabalarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim etiladi:



**3. “Sxema” texnologiyasi** o’rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala mohiyatining asosiy xususiyat yoki belgilariga muvofiq sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalashini ta’minlaydi. Ushbu texnologiyani qo’llash talabandan masalaga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar o’rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o’zlashtirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim xususiyat va belgilarni aniqlaydi, ularni umumlashtiradi yoki tarkibiy qismlarga ajratgan holda sxemani yaratadi. Talabalarda fikrlash, ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu metod g’oyaning qisqa, aniq ifodalanishi uchun sharoit yaratadi.

**4. “Kichik esse” (fransuzcha “essai” – sinov, sinab ko’rish, ocherk, lotincha “exagium” - o’lchamoq) texnologiyasi** kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo’lib, o’rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot hamda tasavurlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur metod talabalar tomonidan o’rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini

beradi. Kichik esseni yaratish jarayonida talabalar mavzu g'oyalarini umumlashtirishlari, tizimlashtirishlari, turkumlashtirishlari hamda xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladilar. Mashg'ulotlar chog'ida mazkur metodni qo'llash quyidagi tartibda yo'lga qo'yiladi: 1) o'qituvchi kichik esseni yaratish uchun muammo yoki masalani tanlaydi; 2) tanlangan muammo, masala bilan talabalarni tanishtiradi; 3) talabalar muammo, masalaning umumiyligi mohiyati yuzasidan fikr yuritadilar; 4) talabalar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladilar; 5) kichik esseni yaratadilar; 6) kichik esse guruh talabalarining e'tiborlariga havola etiladi; 7) guruh a'zolari esse yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar.

### **3-mavzu: Tarbiya maqsadi va vazifalari**

#### **Mashg'ulot uchun materiallar**

##### **I. Talabalar uchun topshiriq.**

Quyida berilgan savollar asosida suhbat tashkil eting.

1. “Tarbiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Tarbiyani tashkil etishdan qanday maqsad ko’zlanadi?
3. Tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi?
4. “Ijtimoiy tarbiya” deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy tarbiya qanday turlarni o’z ichiga oladi?
6. Pedagoglik qanday kasb?
7. Tarbiya jarayoni qanday qonuniyatlargacha tayanadi?
8. Tarbiya jarayonining o’ziga xos xususiyatlari nimalarda iborat?

##### **II. Talabalar uchun topshiriq.**

Ijtimoiy tarbiya turlarini ko’rsating va ularning mohiyatini ochib bering.

Bu o'rinda talabalar sanab juftlik asosida “Nilufar guli” texnologiyasiga muvofiq chuyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. Ijtimoiy tarbiya turlarini ko’rsatish.
2. Ijtimoiy tarbiyaning har bir turiga xos asosiy xususiyatlari belgilash.
3. Ijtimoiy tarbiyaning har bir turini samarali shakllarini ko’rsatish.
4. Ijtimoiy tarbiyaning har bir turini samarali tashkil etishda qo’llaniladigan

metodlarni belgilash.

5. Ijtimoiy tarbiyaning har bir turini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi vositalarni aniqlash.

### **III. Talabalar uchun topshiriq.**

Tarbiya jarayonining qonuniyatları, ustuvor tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.

Bunda talabalar kichik guruhlarga birikkan holda “Sxema” texnologiyasini qo'llash orqali quyidagi topshiriqlarni bajaradidar:

1. Tarbiya jarayonining qonuniyatlarini yorituvchi sxemani yaratish.
2. Tarbiya jarayonining ustuvor tamoyillarini yorituvchi sxemani yaratish.
3. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi sxemani yaratish.

### **IV. Talabalar uchun topshiriq.**

“Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari” nomli kichik esseniyarating.

Bu o'rinda talabalarning tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari borasida mustaqil fikrlay olish, pedagogik faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish ko'nikmalariga egaliklari o'rganiladi va baholanadi.

### **V. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob qaytaring:

1. Axloqiy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
  - A) o'quvchilar ongiga axloqiy me'yorlarni singdirish;
  - B) axloqiy ong, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy xulq-atvor ko'nikmalari va axloqiy e'tiqodga ega shaxsni tarbiyalash;
  - C) o'quvchilarda axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish;
  - D) to'g'ri javob yo'q.
2. Atrofdagilarga hurmat, muhabbat, ular to'g'risida g'amxo'rlik, shaxsning erkinlik, farovonlik, tinchlik va har tomonlama kamol topishga intilishi qanday tamoyil mazmunida aks etadi?
  - A) insonparvarlik tamoyili;
  - B) o'zaro ijtimoiy tenglik tamoyili;

- C) ijtimoiy adolat tamoyili;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

3. Jamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan qoida nima deb ataladi?

- A) huquqiy me'yor;
- B) axloqiy me'yor;
- C) huquqiy qarash;
- D) axloqiy qarash.

4. "Ijtimoiy munosabat, kundalik faoliyat, mehnat va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muayyan qoidalarga qat'iy rioya etish". Ushbu holat qanday tushuncha mazmunini yoritadi?

- A) faoliyat;
- B) rivojlanish;
- C) intizom;
- D) ta'lim.

5. Mehnat tarbiyasining maqsadi nimadan iborat?

- A) o'quvchilarga mehnat turlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish;
- B) mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- C) o'quvchilarga muayyan kasbga qiziqishni uyg'otish;
- D) o'quvchilarda mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

6. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida hal qilinadigan vazifalarni belgilang.

- A) o'quvchilarning bilihga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish, mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- B) o'quvchilarni turli mazmunga ega mehnat ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- C) o'quvchilarda mehnatga muhabbatni uyg'otish, mehnatsevarlik, tejamkorlik xislatlarini tarbiyalash;

D) barcha javoblar to'g'ri.

7. Mehnat tarbiyasi mazmunida aks etuvchi xo'jalik-iqtisodiy omillarni aniqlang: 1) ta'lif muassaasasi imkoniyatlari; 2) o'quvchilarning yosh xususiyatlari; 3) ta'lif muassasasining moddiy ta'minoti; 4) o'quvchi kadrlarning salohiyati; 5) ishlab chiqarish sharoitlari; 6) ta'lif muassasasining an'analari.

A) 1, 2, 4, 5, 6;

B) 2, 3, 4, 5, 6;

C) 1, 2, 3, 4, 5;

D) 1, 3, 4, 5, 6.

8. Mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllarini aniqlang: 1) muammoli; 2) hasharlar; 3) izlanuvchan-tadqiqot; 4) mehnat bayrami; 5) loyihalashtirish; 6) ko'kalamzorlashtirish; 7) mакtab binosini ta'mirlash.

A) 1, 2, 4, 5, 7; B) 2, 4, 6, 7; C) 1, 2, 4, 6; D) 1, 3, 5, 6, 7.

9. Qaysi mehnat turi o'quvchilarning moddiy boyliklar yaratishdagi ishtiropi, bu jarayonda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishishlarini ko'zda tutadi?

A) ishlab chiqarish mehnati;

B) o'quv mehnati;

C) ijtimoiy foydali mehnat;

D) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish.

10. Kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismlarini aniqlang: 1) kasbiy ta'lifni tashkil etish; 2) kasbni sevishga o'rnatish; 3) kasbiy bilim berish; 4) kasbiy faoliyatga oid mashqlarni bajarish; 5) kasbiy maslahat; 6) kasbga moslashuv.

A) 1,3,4,5,6; B) 1,3,4,6; C) 1,3,5,6; D) 1,2,4,5,6.

11. Uyda va ta'lif muasasasida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, sinf xonasi yoki oshxonada navbatchilikni tashkil qilish, hasharlar uyushtirish, maktab binosini ta'mirlashda ishtirok etish, ko'kalamzorlashtirish tadbirida qatnashish kabilar qanday mehnat turiga kiradi?

A) o'quv mehnati;

B) ijtimoiy foydali;

C) ishlab chiqarish;

D) kundalik mehnat.

12. O'quvchilarni mehnatga layoqatli va mehnatsevar qilib tarbiyalashda ko'proq nimalarga e'tibor bermoq lozim?

A) ularni ijtimoiy va ruhiy jihatdan kamol toptirishga;

B) ishbilarmonlik xislatini tarbiyalashga;

C) mehnatda mashq qildirishga;

D) ma'naviy-axloqiy e'tiqodni shaklantirishga.

13. Kasbiy konsul'tasiya (maslahat)ning qanday turlari mavjud?

A) rag'batlantiruvchi, individual-tashxisli, tibbiy;

B) tibbiy, rag'batlantiruvchi, ma'lumot-axborotli;

C) individual-tashxisli, ma'lumot axborotli, tibbiy;

D) tarbiyalovchi, tibbiy, individual-tashxisli.

14. Ekologik tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?

A) o'quvchilarning tabiiy muhitning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risidagi nazariy bilimlarini rivojlantirish;

B) o'quvchilarni tabiatni sevishga o'rgatish, ularda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarini oshirish;

C) o'quvchilarga tabiat va atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish;

D) barcha javoblar to'g'ri

## Texnologik karta

**4-mavzu: Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida. Ta’lim paradigmalari.**  
**Ta’lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida. Ta’lim tamoyillari**

<b>Ish bosqich lari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O’qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich. O’quv mashg’ulotin ing tashkiliy- tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg’ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikkunda undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Blis-so’rov” “Kichik guruhlarda ishlash”, “T-jadval” va “Tavsiyanoma” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>5. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo’yicha o’zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p> <p>7. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg’ulotni</p>	<p>1. O’qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2.”Blis-so’rov”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “T-jadval” va “Tavsiyanoma” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo’yicha o’zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>

	yakunlaydi	
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<p>1. Blis-so'rov asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirishlari, didaktikaning predmeti, funksiyasi, vazifalari, didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishiga oid bilimlarga egaliklarini baholaydi.</p> <p>2. Kichik guruhlar tomonidan didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimining yoritilishini ta'minlaydi.</p> <p>3. Kichik guruhlar tomonidan “T-jadval” texnologiyasini qo'llanilishi asosida talabalarning didaktik nazariyalardan xabardorlik darajasini baholaydi.</p> <p>4. Kichik guruhlar tomonidan “Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini tashkil etish shartlari” mavzusidagi kichik hajmli tavsiyanoma yaratilishini ta'minlaydi.</p> <p>5. Talabalar o'rtaida test so'rovini tashkil etadi</p>	<p>1. Blis-so'rov jarayonida o'qituvchining savollariga javob beradilar.</p> <p>2. “Kichik guruhlarda ishslash” texnologiyasi yordamida mavzuga oid tayanch tushunchalarni o'zlashtirishlari, didaktikaning predmeti, funksiyasi, vazifalari, didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishiga oid bilimlarga egaliklarini namoyish etadilar.</p> <p>3. Kichik guruhlarda ishslash va “T-jadval” texnologiyasi orqali didaktik nazariyalardan xabardorliklarini ko'rsatadilar.</p> <p>4. “Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini tashkil etish shartlari” mavzusida kichik hajmli tavsiyanoma orqali mavzu yuzasidan mustaqil fikrlash layoqatiga egaliklarini namoyish qiladilar.</p> <p>5. Test so'rovi savollariga javob beradilar</p>
	1. Talabalarning mashg'ulotlardagi	1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari

	ishtirokclarini tahlil qiladi va baholaydi.	darajasidan xabardor bo'ladilar.
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtirokclarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati**

1. “T-jadval” texnologiyasi o’rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o’zaro solishtirish, qiyoslash asosida olib beriladi. Ko’p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo’llaniladi. Ushbu texnologiyani qo’llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) talabalar e’tiboriga o’rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi; 2) talabalar “T-jadval” metodini qo’llash shartlari bilan tanishtiriladilar; 3) talabalr guruhlar yoki juftliklarga biriktiriladilar; 4) ajratilgan vaqt oralig’ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko’ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya’ni jadvalning chap va o’ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar; 5) guruhlar (juftliklar) tomonidan to’ldirilgan jadvallar o’zaro solishtiriladi; 6) masalaning echimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi yoki yagona “T-jadval”

shakllantiriladi.

“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

O’rganilayotgan masala (g’oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

**2. “Tavsiyanoma” texnologiyasi** talabalarda muayyan yo’nalishda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minalash yuzasidan muayyan tavsiyalarni ilgari surish ko’nikmasini shakllantiradi. Ilgari surilayotgan tavsiyalar mazmunan masalaning echimini topishga yordam berishi, ilmiy jihatdan pedagogik amaliyotga mos kelishi talab etiladi. Metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) o’qituvchi tavsiyanoma tayyorlash talab etilgan masalani aniqlashtiradi; 2) talabalarga bu haqida e’lon qiladi; 3) talabalar fikr yuritish asosida masalaning echimini topishga harakat qiladilar; 4) masalaning umumiyligi mohiyatini qayta yodga olish orqali uning muhim jihatlarini belgilab olinadi; 5) belgilangan muhim jihatlarga tayangan holda muayyan tavsiyalar ishlab chiqiladi; 6) ilgari surilayotgan tavsiyalar va ularning samaradorligi muhokama qilinadi; 7) yakuniy xulosaga kelinadi.

Texnologiyani qo’llashda talabalar guruh yoki juftliklarga birikkan holda yoki alohida faoliyat yuritishlari mumkin. Mashg’ulot jarayonida talabalar tomonidan ilgari surilgan barcha tavsiyalar umumlashtiriladi.

#### **4-mavzu: Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida. Ta’lim paradigmalari.**

##### **Ta’lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida. Ta’lim tamoyillari**

###### **Mashg’ulot uchun materiallar**

###### **I. Talabalar uchun topshiriq.**

###### **Blis-so’rov savollariga javob qaytaring.**

Bu o’rinda talabalarning e’tiborlariga quyidagi savollar havola etiladi:

1. “Didaktika” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Didaktika nimani o’rganadi?
3. Ta’lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta’riflash va tushuntirish; ta’lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya’ni ta’lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish; ta’lim jarayoni uchun xos bo’lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarni tahlil qilish va ta’riflash. Bu holatlar didaktikaning qasi jihatlarini yoritmoqda?
4. “Ta’lim paradigmalari” tushunchasini ta’riflang.
5. Ta’lim jarayonini boshqarish qanday bosqichlarda tashkil etiladi?
6. Bilimlarni o’zlashtirish jarayonining bosqichlarini sanab o’ting.

## **II. Talabalar uchun topshiriq.**

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimini yoriting.

Bu o’rinda talabalar kichik guruhrilar tarkibida quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1-guruh. Didaktikaning asosiy kategoriyalari tizimini shakllantiring va kategoriyalarni ta’riflang.

2-guruh. Zamonaviy didaktik nazariyalarni sanab o’ting va ularning o’ziga xos jihatlarini ko’rsating.

3-guruh. Ta’lim qonuniyatlarining mohiyatini yoriting.

4-guruh. Ta’limning muhim mantiqiy tamoyillarini belgilang va ularni qisqacha ta’riflang.

5-guruh. Ta’limning muhim tashkiliy-metodik tamoyillarini belgilang va ularni qisqacha ta’riflang.

## **III. Talabalar uchun topshiriqlar.**

Didaktik nazariyalarga xos muhim jihatlarni yoritng.

Topshiriq kichik guruhrilar tomonidan quyidagi sxema asosida bajariladi:

Didaktik nazariyalar	
Afzalligi	Kamchiligi
An’anaviy didaktik nazariyalar	

	Progressiv didaktik nazariyalar
	Zamonaviy didaktik nazariyalar

#### **IV. Talabalar uchun topshiriq.**

Didaktik nazariyalar mohiyatini yorituvchi tavsiyanoma tayyorlang.

Bu o'rinda talabalar kichik guruhlarda "T-jadval" texnologiyasini qo'llash asosida "Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini tashkil etish shartlari" mavzusida didaktik nazariyalarning mohiyatini yoritadilar.

#### **V. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob bering:

1. Didaktika nimani o'rganadi?
  - A) o'qitish mazmuni, qonuniyatlar, tamoyillari, shakl, metod va vositalarini o'rganadi;
  - B) shaxsning umumiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi;
  - C) bolaning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini o'rganadi;
  - D) shaxsga ta'lim hamda tarbiya berishga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganadi.
2. Didaktikaning asosiy kategoriylarini ko'rsating.
  - A) rivojlanish, mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirish;
  - B) ta'lim berish, tarbiyalash, shakllantirish;
  - C) bilim, ko'nikma, ta'lim, malaka va tushuncha;
  - D) bilim, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari.
3. "Ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi" tushunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?
  - A) ta'lim funksiyalari;
  - B) ta'lim vositalari;
  - C) ta'lim metodlari;
  - D) ta'lim natijasi.
4. Buyuk chex olimi Yan Amos Komenskiy ta'lim qo'llaniladigan qaysi

jarayonni “didaktikaning oltin qoidasi” deb atagan?

- A) ta’limning tabiat bilan uyg’unligini;
- B) o’quvchilarga bilim berishda ilmiy atamalardan foydalanishni;
- C) ko’rsatmalilikni;
- D) nazariy bilimlarning o’quvchilar uchun tushunarli bo’lishini.

5. “Ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi” tushunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?

- A) ta’lim funksiyalari;
- B) ta’lim vositalari;
- C) ta’lim metodlari;
- D) ta’lim natijasi.

6. “Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf”.

Mazkur fikrning muallifi kim?

- A) Alisher Navoiy;
- B) Unsurul Maoliy Kaykovus;
- C) Ahmad Yugnakiy;
- D) Saidahmad Siddiqiy.

7. Ta’lim jarayonini boshqarish bosqichlari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A) rejorashtirish, tashkil etish;
- B) boshqarish, nazorat;
- C) natijalarни baholash va tahlil qilish;
- D) barcha javoblar to’g’ri.

8. Idrok etish – anglab etish – yodda olish, mustahkamlash – bilimlarni amaliyotda qo’llash. Mazkur holat qanday jarayon mohiyatini anglatadi?

- A) o’quvchilar bilish faoliyatini boshqarishni;
- B) bilimlarni tashxis qilishni;
- C) bilimlarni o’zlashtirishni;
- D) o’quvchilar bilimlarni nazorat qilishni.

9. Ta’lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlantirish qanday tamoyilga muvofiq amalga oshiriladi?

- A) ta’limning insonparvarlik tamoyiliga muvofiq;
- B) ta’limning tarbiyalovchilik tamoyiliga muvofiq;
- C) ta’limning ilmiylik tamoyiliga muvofiq;
- D) ta’limning tabiat bilan uyg’unligi tamoyiliga muvofiq.

### Texnologik karta

#### 5-6-mavzular: Ta’lim metodlari va vositalari. Ta’limni tashxis qilish

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O’quv mashg’uloti ning tashkiliy- tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg’ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Savol-javob”, “Ven diagrammasi”, “Slayd”, “Ajurli arra” va “Kichik esse” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg’ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg’ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O’qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. “Savol-javob”, “Ven diagrammasi”, “Slayd”, “Ajurli arra” va “Kichik esse” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo’yicha o’zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>


	<p>1. Talabalarning mavzuga oid bilimlarga egaliklarini baholaydi.</p> <p>2. Kichik guruhlar tomonidan ta’lim metodlari va ta’lim vositalari, turlarining yoritilishini ta’minlaydi.</p> <p>3. Talabalarning ta’lim metodlari mohiyatini tavsiflash ko’nikmalariga egaliklari ko’rsatadilar.</p> <p>4. “Kichik esse” texnologiyasi yordamida ta’lim olganlikni tashxis qilish layoqatlariga egaliklarini amalda isbotlaydilar.</p> <p>5) Test so’rovini tashkil etadi</p>	<p>1. O’qituvchining savollariga javob beradilar, mavzu borasidagi bilimlarga egaliklarini namoyish etadilar.</p> <p>2. Ta’lim metodlari mohiyatini tavsiflash ko’nikmalariga egaliklari ko’rsatadilar.</p> <p>4. “Kichik esse” texnologiyasi yordamida ta’lim olganlikni tashxis qilish layoqatlariga egaliklarini amalda isbotlaydilar.</p> <p>5. Test so’roviga javob berish orqali mavzuga oid bilimlarini namoyish etadilar</p>
<p><b>3-bosqich.</b></p> <p><b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)</b></p>	<p>1. Talabalarning mashg’ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg’ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg’uloti mavzusini e’lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi,</p>	<p>1. Mashg’ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg’ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo’ladilar va o’qituvchi</p>

	ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar
--	---	--

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

1. “Ven diagrammasi” strategiyasi talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o’zlashtirish (sintezlash) ko’nikmalarini hosil qilishga yo’naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozyv taxtasi o’zaro teng to’rt bo’lakka ajratiladi va har bir bo’lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan o’zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo’lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

“Ven diagrammasi” strategiyani qo’llash bosqichlari: 1) sinf o’quvchilari to’rt guruhga bo’linadi; 2) yozyv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi; 3) har bir guruhga o’zlashtirilayotgan mavzu (bo’lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi; 4) topshiriqlar bajarilgach, guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi; 5) liderlar guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozyv taxtasida aks etgan diagrammani to’ldiradilar

Strategiyasini qo’llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzudagi topshiriqni bajaradi. Talabalar uchun quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlardan	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
-------------	--------------------------------	-------------------------

1-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

**2. “Slayd” texnologiyasi** talabalarda mavzu yuzasidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlarini komp'yuter vositasida namoyish eta olish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya, shuningdek, talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi. Slaydlarni yaratish uchun talabalar mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy g’oya va tushunchalarni ajrata bilish, ular o’rtasida o’zaro

mantiqiy bog'liqlikni yuzaga keltirish layoqatlariga ega bo'lishlari lozim. Mashg'ulot jarayonida texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi tomonidan topshiriq uchun mavzu, masala yoki muammo tanlanadi;
- 2) talabalarga bu hiqida ma'lumot beriladi; 3) talabalar berilgan topshiriq bo'yicha o'zlari o'zlashtirgan nazariy bilimlarni muayyan tartibda tizimlashtiradilar, asosiy g'oya va tushunchalarini belgilab oladilar; 4) belgilab olingan asosiy g'oya va tushunchalarning mazmuni, ma'nosini sharhlaydilar; 5) mazkur sharhlar komp'yuterda "Power Point" dasturi bo'yicha alohida slaydlarda aks ettiriladi; 6) tayyorlangan slaydlar namoyish etiladi; 7) talabalar tomonidan individual ravishda yoki guruhi (juftlik) asosida tayyorlangan slaydlar muhokama qilinadi; 8) yakuniy xulosaga kelinadi; 9) talabalarning faoliyati o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Ushbu texnologiya asosida ishlashlari uchun talabalarga namuna sifatida quyidagi ishlanma taqdim etiladi:

1-слайд

2-слайд

3-слайд

...


**3. "Ajurli arra" (fransuzcha "ajour" – "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq") metodi** talabalarga yaxlit muayyan mavzu yoki masalani bir nechta qismlarga ajratish orqali uning mohiyatini yoritish imkonini beradi. Talabalar tayyor matnlar bilan ishlaydilar. Metodni mashg'ulot jarayonida qo'llash quyidagi tahlitda amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi talabalarni metod mohiyati bilan tanishtiradi;
- 2) talabalarni guruhlarga ajratadi;
- 3) talabalarga havola etiladigan materiallar matni bir nechta qismlarga ajratilgan holda qirqiladi;
- 4) matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlarga tarqatiladi;
- 5) guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajaradilar;
- 6) topshiriq bajarib bo'lingach, turlari guruhlardan matnni yaxshi o'zlashtirgan talabalar ajratib olinib, ulardan

iborat ekspertlar guruhi shakllantiriladi; 7) ekspert guruhi a'zolari o'zlari o'zlashtirgan material mazmunini boshqalarga etkazish rejasini tuzadilar; 8) ekspertlar guruhi a'zolari o'zlari o'zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlarga ham o'rgatadilar.

Metodni qo'llashda talabalarning mavzuni puxta o'zlashtirganliklari, o'zlari ega bo'lgan bilimlarni boshqalarga etkazib berish layoqatiga ega bo'lislari muhim sanaladi.

“Ajurli arra” metodining texnologik modeli quyidagichadir:



## **5-6-mavzular: Ta'lim metodlari va vositalari.**

### **Ta'limni tashxis etish**

### **Mashg'ulot uchun materiallar**

#### **I. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga oid savollarga javob bering.

Talabalarning e'tiborlariga quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. “Metod” hamda “ta’lim metodi” tushunchalari qanday ma’noni anglatadi?
2. Ta’lim metodlari qanday funksiyalarni bajaradi?
3. “Ta’lim usullari” nima?
4. Ta’lim metodlari qanday turlarga bo’linadi?
5. Og’zaki bayon qilish metodlari nimalardan iborat?
6. Qanday metodlar ko’rgazmali metodlar sanaladi?
7. Amaliy metodlar o’z ichiga qanday metodlarni oladi?

8. Ta’lim metodlarini tanlashda o’qituvchi nimalarni inobatga olishi lozim?

9. “Interfaol metodlar” deganda nimani tushunasiz?


## **II. Talabalar uchun topshiriq.**

Ta’lim metodlarining turlarini ko’rsating va ularning mohiyatini yoriting.

Bu o’rinda talabalar “Ven diagrammasi” texnologiyasi asosida quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. Ta’lim metodlarining turlarini yoritish.
2. Og’zaki bayon qilish metodi turlarining mohiyatini ochib berish.
3. Ko’rgazmali metodlarning o’ziga xos jihatlarini belgilash.
4. Amaliy metodlarning mohiyati va ahamiyatini ko’rsatib berish.

Guruhlarga topshiriqlarni bajarishlari uchun “Ven diagrammasi”ning quyidagi sxemalari tavsiya etiladi:



## **III. Talabalar uchun topshiriq.** Ta’lim metodlarining mohiyatini tavsiflang.

Педагогика фанининг предмети, мақсади, илмий тадқиқот методлари

Тарбия назарияси тарбия жараёни мазмуни, шакл, метод ва воситалари, уни ташкил этиш йўлларини ўрганади

Педагогика икки мухим таркибий қисмдан иборат:  
1. Дидактика (таълим назарияси).  
2. Тарбия назарияси

Ижтимоий тарбия турлари:  
1. Ибтидоий тарбия. 2. Қулдорлик тузуми тарбияси. 3. Феодал тузум тарбияси. 4. Тоталитар тузум тарбияси. 5. Мустақиллик даври

Дидактика таълимнинг назарий жиҳатлари, таълим жараёни ташкил этишининг умумий моҳиятини ўрганади

Илмий-педагогик методлар:  
Педагогик таҳлил. Суҳбат. Анкета.  
Интервью. Ҳужжатларни ўрганиш.  
Тест. Педагогик кузатиш. Педагогик тажриба. Математик статистика.

Bu o’rinda talabalar “Slayd” texnologiyasi asosida ta’lim metodlarining

mohiyatini tavsiflaydilar. Talabalarga slaydlarni yaratishga oid quyidagi namuna taqdim etiladi:

#### **IV. Talabalar uchun topshiriq.**

Ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini ko’rsatib bering.

Bunda “Ajurli arra” metodi qo’llaniladi.

1. “Ta’lim vositalari” tushunchasining mohiyatini yoriting.
2. Ta’lim vositalarining turlarini sanab o’ting.
3. Ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini ochib bering.
4. Ta’lim jarayonida komp’yuterdan foydalanishning afzalliklarini shaxsiy mulohazalaringiz yordamida asoslab bering.
5. O’quv diafil’malarining didaktik imkoniyatlarini baholang.

#### **V. Talabalar uchun topshiriq.**

Ta’lim olganlikni tashxis qilish jarayonining mohiyatiga bayon eting.

Talabalar texnologiya yordamida ta’lim olganlikni tashxis qilish jarayonining mohiyatini yorita olish qobiliyatlarini namoyish qiladilar. Ya’ni: yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo’yicha ular nimalarni o’rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so’raladi.

#### **VI. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob qaytaring:

1. Ta’lim metodlarining turlari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?
  - A) bilish faoliyatini kuzatish, nazorat va o’quv faoliyatini tuzatish metodlari;
  - B) og’zaki bayon qilish, ko’rgazmali va amaliy metodlar;
  - C) o’qishga qiziqishni rag’batlantiruvchi, o’z-o’zini nazorat metodlari, mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag’batlantirish metodlari;
  - D) to’g’ri javob yo’q.
2. Ta’limning amaliy metodlariga nimalar kirishini ko’rsating?
  - A) mashq kilish, laboratoriya va amaliy ishlar;
  - B) illyustrasiya, namoyish qilib ko’rsatilishi;
  - C) hikoya, tushuntirish, suhbat, ma’ruza;

D) test, algoritmlash, qisman izlanish, induksiya.

3. Ko'rsatmalilik metodining asosiy tarkibini tashkil etuvchi metodlarini ko'rsating.

A) mashq qilish, laboratoriya va grafik ishlar;

B) kuzatish, namoyish qilib ko'rsatilishi;

C) namoyish etish, tasvirlash, ekskursiya;

D) Sxema va chizmalar tayyorlash, grafiklar.

4. Ta'limning og'zaki metodlariga nimalar kirishini ko'rsating:

A) mashq kilish, laboratoriya va amaliy ishlar;

B) Illyustrasiya, namoyish qilish;

C) test, algoritmlash, qisman izlanish

D) hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza.

5. Evristik suhbat metodi daslab kim tomonidan qo'llanilgan?

A) Platon (Ptolamey); B) Sokrat (Suqrot);

C) Arastotel (Arastu); D) Demokrit.

6. O'qituvchining suhbatи ta'limning qaysi metodiga kiritiladi?

A) og'zaki; B) amaliy; C) ko'rgazmali; D) to'g'ri javob yo'q.

7. O'quvchilarning BKMni tekshirish qanday funksiyalarni bajaradi:

A) bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish;

V) o'qitish, tashkil etish, tizimlash;

S) nazorat qilish, o'qitish, tarbiyalash;

D) umuminsoniy, gumanistik, demokratik.

8. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining yakuniy nazorati nima?

A) o'quvchilardan so'rash;

B) yangi bilimlarni mustahkamlash vaqtida so'rash;

C) bo'lim yakuni, yarim yil yoki o'quv yili oxirida so'rash;

D) dars yakunida so'rash.

## Texnologik karta

### 7-mavzu: Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O’quv mashg’uloti ning tashkiliy- tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg’ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikkunda undaydi.</p> <p>3. Talabalmi “Blis-so’rov”, “Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”), “Rotasiya” va “Bahs-munozara” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlarni faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg’uloni yakunlaydi</p>	<p>1. O’qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. “Blis-so’rov” “Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”), “Rotasiya” va “Bahs-munozara” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo’yicha o’zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
	<b>Pedagogik vazifalar:</b> <p>1. Blis-so’rov asosida talabalarning ta’lim turlari va ularning</p>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b> <p>1) talabalar ta’lim turlari va ularning mohiyatiga oid</p>


	<p>mohiyatiga oid bilimlarga egaliklarini baholaydi.</p> <p>2. Kichik guruhlar tomonidan “Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”) texnologiyasi vositasida an’anaviy va noan’anaviy ta’lim turlarining afzalliklari yuzasidan munosabat bildiradilar;</p> <p><b>2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlas h bosqichi (55 daqiqa)</b></p> <p>3. Kichik guruhlar tomonidan “Rotasiya” metodini qo’llanilishi asosida talabalarning ta’lim shakllaridan xabardorliklarini o’rganadi.</p> <p>4. Kichik guruhlar asosida talabalarning zamonaviy dars xususiyatlarini yorita olishlarini aniqlaydi.</p> <p>5. Talabalar o’rtasida “Zamonaviy sharoitda an’anaviy ta’limdan foydalanish afzalmi yoki noan’anaviy ta’limdan?” mavzusida babs-munozarani tashkil etadi.</p> <p>6. Test so’rovini tashkil etadi</p>	<p>bilimlarini namoyish etadilar;</p> <p>2) “Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”) texnologiyasi vositasida an’anaviy va noan’anaviy ta’lim turlarining afzalliklari yuzasidan munosabat bildiradilar;</p> <p>3) “Rotasiya” metodi yordamida ta’lim shakllari to’g’risidagi bilimlariga egaliklarini ko’rsatib beradilar;</p> <p>4) zamonaviy dars xususiyatlarini yorita olishlarini namoyish qiladilar;</p> <p>5) babs-munozarada faol ishtirok etadilar;</p> <p>6) test so’rovi asosida mavzu yuzasidan o’zlashtirilgan bilimlarni umumiy tarzda namoyish etadilar</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy</b>	<p>1. Talabalarning mashg’ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va natijaga qay darajada erishilganlikni</p>	<p>1. Mashg’ulotdagagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy</p>

<b>qism (10 daqiqa)</b>	xulosalaydi.  3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.  4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	ishtiroklarini baholaydilar..  3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..  4. Navbatdagi mavzudan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar
---------------------------------	--	---

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

1. “Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”) texnologiyasi metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarни har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondoshuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdag'i faoliyatni olib borishda yozyv taxtasidan foydalanadilar):



Mazkur texnologiya quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.
2. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.
3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.
4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar, Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

Texnologiyaning o'ziga xos jihatni uning bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llanilishidadir. Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

“QARORLAR SHAJARASI” metodi					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchihiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

QAROR:					

**2. “Rotasiya” metodi** mavzuni kichik guruhlarda o’rganish, asosiy g’oyalarni yozma bayon qilish hamda guruhlar tomonidan taqdim qilingan ishlarni jamoa ishtirokida tahlil qilish imkonini beradi. Mashg’ulot jarayonida metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) o’rganilayotgan mavzuga doir topshiriqlar yozma ravishda bayon qilinib, yozyv taxtasiga osib qo’yiladi; 2) talabalar topshiriqlar soniga ko’ra guruhlarga biriktiriladilar; 3) guruhlar ixtiyoriy ravishda topshiriqlar paketini tanlaydilar va topshiriqnı bajarishga kirishadilar; 4) topshiriqning echimi yozma bayon qilinadi va guruh ishining ajratib olish oson bo’lishi uchun paket ustiga maxsus belgilar qo’yiladi; 5) topshiriqning echimi bayon qilingan paketlar guruhlar o’rtasida o’zaro almashtiriladi; 6) barcha topshiriqlarning mazmuni guruhlar tomonidan o’rganilib bo’lgach, topshiriqlar paketlari yig’ib olinadi va echimlar umumlashtiriladi; 7) echimlar jamoada muhokama qilinib, eng to’g’ri javob tanlab olinadi.

**3. “Bahs-munozara” metodi** ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig’i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og’zaki bahsi bo’lib, talabalarda o’rganilayotgan mavzu bo’yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O’quv mashg’ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi. Metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) bahs-munozara uchun tanlanadigan mavzu (masala) talabalarga oldindan ma’lum qilinadi; 2) jarayon boshlovchi tomonidan boshqarilib boriladi; 3) talabalar individual yoki guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo’yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladilar; 4) bahsda masalaning mohiyati, echimi bo’yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi; 5) echim bo’yicha asosiy fikrni bayon etadigan talabalarga 10 minut, qo’shimcha qilish istagida bo’lganlarga esa 5 minutdan vaqt beriladi; 6) bir

talabaga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi; 7) boshlovchi talabalarning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladilar; 8) bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa boshlovchi tomonidan bildiriladi.

### **7-mavzu: Ta'limgan tashkil etish turlari va shakllari.**

#### **Dars – ta'limgan tashkil etishning asosiy shakli sifatida**

##### **Mashg'ulot uchun materiallar**

##### **I. Talabalar uchun topshiriq.**

Blis-so'rov savollariga javob bering.

Talabalarga quyidagi savollar havola etiladi:

1. Ta'limgan qanday turlarini bilasiz?
2. Zamonaviy sharoitda qanday ta'lim shakllaridan foydalanimoqda?
3. O'quvchilarning o'quv faoliyatları qanday shakllarda tashkil etiladi?
4. Darsga xos bo'lgan xususiyatlarni bayon eting.
5. Darsga tayyorgarlik jarayonining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
6. Ma'ruza darsining mohiyatini qisqacha ta'riflang.

##### **II. Talabalar uchun topshiriq.**

An'anaviy va noan'anaviy ta'lim turlarining mohiyatini yoriting.

Bu o'rinda talabalar kichik guruhlarga birikkan holda "Qarorlar shajarasi" ("Qaror qabul qilish") texnologiyasi vositasida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim turlarining afzalliklari yuzasidan o'zlarining munosabatlarini bildiradilar. Topshiriqni bajarish uchun talabalarning e'tiborlariga quyidagi jadval tavsiya etiladi:

"Qarorlar shajarasi" ("Qaror qabul qilish") texnologiyasi			
Umumiy muammo			
An'anaviy ta'lim xususiyati		Noan'anaviy ta'lim xususiyati	
1-qaror varianti		2-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

Qaror:			

### **III. Talabalar uchun topshiriq.**

Ta’lim shakllari (seminar, laboratoriya, konferensiya, ekskursiya, fakul’tativ, davra suhbatи va taqdimot (prezentasiya) kabi dars shakllarining mohiyatini yoriting.

Bu o’rinda talabalar kichik guruhlarga birikkan holda “Rotasiya” metodi asosida talabalarning ta’lim shakllaridan xabardorliklarini namoyoish etadilar. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh: seminar darslarining mohiyatini yoriting.

2-guruh: laboratoriya darslariga xos xususiyatlarni ochib bering.

3-guruh: konferensiya darsining muhim jihatlarini ko’rsating.

4-guruh: ekskursiya darslarining afzalliklarini asoslang.

5-guruh: fakul’tativ mashg’ulotlarning samaradorligini yoriting.

6-guruh: davra suhbatining didaktik imkoniyatini ochib bering.

7-guruh: taqdimot (prezentasiya) darslarining o’ziga xos jihatlari to’g’risida ma’lumot bering.

### **VI. Talabalar uchun topshiriq.**

Zamonaviy dars xususiyatlarini yoriting.

Bu o’rinda talabalar quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. “Darsning didaktik imkoniyati” nomli annatosiya tayyorlang.

2. Darsning muhim xususiyatlari ifodalangan slaydlarni tayyorlang.

3. Dars turlari to’g’risida ma’lumot beradigan sxemani yarating.

### **V. Talabalar uchun topshiriq.**

“Zamonaviy sharoitda an’anaviy ta’limdan foydalanish afzalmi yoki noan’anaviy ta’limdan?” mavzusidagi bahs-munozarani tashkil eting.

Talabalar bu o’rinda quyidagi savollar asosida bahs-munozarani tashkil etadilar:

1. Sizning an’anaviy ta’lim bugungi kun talablariga javob bera olmaydimi?

2. Ayting-chi, an'anaviy ta'limning bir necha asrlar davomida qo'llanilib kelganligi uning samaradorligini asoslay olmaydimi?

3. Sizning fikringizcha, noan'anaviy ta'limning afzalligi nimada?

4. Noa'anaviy darslarda asosiy e'tibor o'quvchilarga bilimlar berish, mavjud bilimlarni mustahkamlashga qaratilmay, balki asosiy vaqtida tashkiliy masalalarning hal qilinayotganligi jiddiy kamchilik hisoblanadimi?

5. Siz qanday fikrdasiz, tez orada keyin o'qitishda noana'aviy ta'limning ustuvorligi to'la ta'minlanadimi?

## **V. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzu yuzasidan quyidagi test savollariga javob bering:

1. Pedagogik tajriba tashkil etish sharoitiga ko'ra qaysi guruhlarga bo'linadi?

A) matematik-statistik, evristik, innovation tajriba;

B) tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi;

C) bolalarni ijodini o'rganish, nazariy tahlil va matematik statistika;

D) laboratoriya tajribasi, amaliy tajribasi, tajribasi.

2. Ta'limni tashkil etish shakllari qaysi variant javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) yakka tartibdagi ta'lim, repetitorlik ta'lim, fakul'tativ ta'lim;

B) an'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, individual ta'lim;

C) ekskursiya, ma'ruza, viktorina;

D) hamma javoblar to'g'ri.

3. Noan'aviy ta'lim shakliga nimalar kiradi?

A) kirish darslari, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish darslari;

B) yangi bilimlarni bayon qilish darsi va takrorlash darslar;

C) ma'ruza, fakul'tativ, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, bahs-munozara, davra stoli, viktorina va hakozo;

D) hamma javoblar to'g'ri.

4. Darsning boshlanishini tashkil etish uy vazifasini tekshirish, maqsadi va vazifasini bayon qilish, yangi materiallarni tushuntirish, mustahkamlash, yakun yasash va uyga vazifa berish" kabi vazialar hal qilinadigan dars tipini ko'rsating:

A) kombinasion dars;

B) bilimlarni takrorlash;

C) yangi bilimlarni berish; D) umumlashtirilgan darsi.

5. Darsning o'ziga xos xususiyatlari (belgilari)ni ko'rsating.

A) shakllangan, deyarli o'zgarmas o'quvchilar guruhining mavjudligi;

B) o'quvchilar guruhiga rahbarlik qilish;

C) guruhga har bir o'quvchining psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish;

D) barchasi to'g'ri.

6. Ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqish, rejani ishlab chiqish, o'quvchilarni muayyan topshiriqlarni bajarishga tayyorlash holatlari qanday dars shakli mazmunini ifodalaydi:

A) fakul'tativ darslarining;

B) seminar darslarining;

C) ekskursiya darslarining;

D) maslahat darslarining.

## Texnologik karta

### 8-mavzu: O'quvchilar jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Qorbo’ron”, “Asalari galasi”, “Loyihalash” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlardan faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Talabalarni “Qorbo’ron”, “Asalari uyasi”, ‘Loyihalash” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlardan tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
	<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>1. “Qor bo’roni” metodi yordamida talabalarning o'quvchilar jamoasi va shaxsni jamoada shakllantirishga oid bilimlarga egaliklarini baholaydi.</p> <p>2. Kichik guruhlardan “Asalari galasi” metodi asosida</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>1) o'quvchilar jamoasi va shaxsni jamoada shakllantirishga oid bilimlarga egaliklarini namoyish etadilar;</p> <p>2) jamoani shakllantirish bosqichlarining mohiyatini</p>

<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy qism</b> – <b>bilimlarni</b> <b>mustahkam</b> <b>lash</b> <b>bosqichi</b> <b>(55 daqiqa)</b>	jamoani shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarining yoritilishini ta'minlaydi. 3. “Kichik esse” metodi yordamida talabalar tomonidan o'quvchilar jamoasi oldiga pedagogik talablar qo'yish ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ta'minlaydi. 4. Kichik guruhlar tomonidan “Loyiha” metodi yordamini qo'llash asosida talabalarda jamoa bilan ishslash loyihasini tuzish ko'nikmasini shakllantiradi. 5. Test so'rovini tashkil etadi	o'zlashtirganliklarini ko'rsatadilar; 3) jamoa bilan ishslash loyihasini tuza olish ko'nikmasiga egaliklarini namoyish qiladilar; 4) o'quvchilar jamoasi oldiga pedagogik talablar qo'yish ko'nikmalariga egaliklarini ko'rsatadilar; 5) mavzu yuzasidan mavjud bilimlarini namoyish etadilar
<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy</b> <b>qism</b> <b>(10 daqiqa)</b>	1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi. 2. Mashg'ulot maqsadiga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi. 3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi. 4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar. 2. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar.. 3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar.. 4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar

## **Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati**

**1. “Qorbo’ron” metodi** mashg’ulotni o’zaro musobaqa ko’rinishida tashkil etilishini ta’minlaydi. Metodni qo’llash jarayonida talabalar mavzu yuzasidan tezkor, asosli, to’g’ri fikrlay olishlari lozim. Mazkur metodni qo’llash quyidagi tarzda kechadi: 1) talabalarga muhokama uchun tanlangan mavzu (masala) e’lon qilinadi; 2) talabalar “Qorbo’ron” metodining mohiyati va shartlari bilan tanishtiriladilar; 3) talabalar ikki guruhga ajratiladilar; 4) o’qituvchi mavzu yuzasidan tuzilgan savollarni talabalarning e’tiborlariga havola qiladi; 5) har ikki guruh talabalari berilgan savolga birinchi bo’lib, to’g’ri javob topishga harakat qilishlari lozim; 6) guruhlarning har bir to’g’ri javobi yumoloqlangan qor ko’rinishida ularning hisobiga yozyv taxtasida yozib boriladi; 7) barcha savollar berib bo’lingach, guruhlar tomonidan to’plangan ballar umumlashtiriladi va g’olib jamoa (guruh) aniqlanadi.

**2. “Asalari galasi” metodi** o’rganilayotgan mavzu bo’yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiyligi yoki talabalarni kichik guruhlarga biriktirgan holda tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo’llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo’lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natijaga barchaga ma’lum qilinadi. Mashg’ulot so’nggida masalaning eng maqbul echimi tanlab olinadi.

**3. “Loyihalash” metodi** talabalar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig’ida o’rganilayotgan mavzu bo’yicha axborotlarni yig’ish va tadqiq qilishga xizmat qiladi. Mashg’ulotlarda mazkur metoddan foydalanish talabalarda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma’lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma’lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish hamda natijalarni baholash ko’nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Metodni qo’llash vaqtida talabalar mavzu bo’yicha yangi loyihalarni yarata olishlari lozim. Loyihalarni yaratishda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniq fikr hamda belgi, tavirlar yordamida ifodalanishi zarur.

Metodning didaktik imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi;
- 2) ularda mavzularni mustaqil o'rganish ehtiyojini qaror toptiradi;
- 3) o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlariga yordam beradi.

**8-mavzu: O'quvchilar jamoasi – yagona pedagogik  
jarayonning asosiy shakli  
Mashg'ulot uchun materiallar**

**I. Talabalar uchun topshiriq.**

O'quvchilar jamoasi va shaxsni jamoada shakllantirish jarayonining mohiyatini yoriting.

Bu o'rinda "Qorbo'roi" metodi yordamida talabalar ikki guruhga bo'lingan holda o'quvchilar jamoasi va shaxsni jamoada shakllantirishga oid bilimlarga egaliklarini namoyish qiladilar. Talabalardan iborat ikki guruh o'quvchilar jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish; shaxsni jamoada shakllantirish jarayonining mohiyati yuzasidan eng ko'p ma'lumotlarni berish bo'yicha musobaqalashadilar. Guruhlarning e'tiborlariga quyidagi savollar havola qilinadi:

1. O'quvchilar jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.
2. Shaxsni jamoada shakllantirish jarayonining mohiyati to'g'risida ma'lumotlar bering.

**II. Talabalar uchun topshiriq.**

Jamoani shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarining mohiyatini yoriting.

Bu o'rinda kichik guruhlar tomonidan "Asalari galasi" metodi qo'llaniladi. Guruhlarda muhokama qilish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-guruh: O'quvchilar jamoasini shakllantirishning birinchi bosqichi.
- 2-guruh: O'quvchilar jamoasini rivojlantirishning ikkinchi bosqichi.
- 3-guruh: O'quvchilar jamoasini rivojlantirishning uchinchi bosqichi.
- 4-guruh. O'quvchilar jamoasini rivojlantirishning to'rtinchi bosqichi.

**III. Talabalar uchun topshiriq.**

O'quvchilar jamoasi oldiga pedagogik talablar qo'yish jarayoning

mohiyatini yoriting.

Bunda talabalar “Kichik esse” metodi yordamida o’quvchilar jamoasi oldiga pedagogik talabalarni qo’yish jarayonining mohiyatini ochib beradilar.

Kichik esseni yaratishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. “Pedagogik talab” tushunchasining mohiyatini ochib berish.
2. Pedagogik talablarning umumiylariga to’xtalib o’tish.
3. Pedagogik talablar samaradorligini ta’minlovchi omillarini yoritish.
4. O’quvchilarning pedagogik talablarga rioya etishlarini nazorat qilish shartlarini bayon etish.

## **VI. Talabalar uchun topshiriq.**

Sinf rahbari sifatida o’quvchilar jamoasi bilan ishslash loyihasini tuzing.

Bunda kichik guruhlar tomonidan “Loyihalash” metodi qo’llaniladi.

Loyihani yaratishda guruhlar quyidagilarni inobatga olishlari lozim:

1. O’quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirish shartlari.
2. O’quvchilar jamoasiga xos muhim xususiyatlar (belgilar).
3. Jamoaning har bir o’quvchi hayotidagi o’rni va roli.
4. O’qituvchilar tomonidan jamoaga qo’yiladigan talablar mohiyati.
5. O’quvchilar jamoasining o’z-o’zini boshqarish faoliyati mazmuni.

## **V. Talabalar uchun topshiriq.**

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob bering:

1. Jamoaning asosi belgisi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?
  - A) bir necha a’zo (kishi)dan iborat bo’lishi, ijtimoiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi;
  - B) o’z-o’zini boshqarish organiga egalik, boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda bo’lish;
  - C) jamoa hayotining aniq maqsadga yo’naltirilib, ijtimoiy-g’oyaviy xususiyat kasb etishi;
  - D) barcha javoblar to’g’ri.
2. Jamoa a’zolarida qanday sifatlar tarkib topadi?
  - A) o’z ustida izlanish, boshqalardan ilg’or tajribalarni o’rganish, atrofdagilarga yordam berish;

B) o'zaro ruhiy yaqinlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish;

C) o'z-o'ziga ishonish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tanqid qilish;

D) harakatchanlik, o'z faoliyati natijasi uchun mas'uliyatli bo'lish, tirishqoqlik.

3. O'qituvchilar tomonidan butun guruhga talab qo'yilishi va jamoa faollarini shakllantirishga e'tiborning qaratilishi o'quvchilar jamoasi shakllanishing qaysi bosqichida kechadi?

A) birinchi bosqichda;

B) ikkinchi bosqichda;

C) uchinchi bosqichda;

D) to'rtinchi bosqichda.

4. Jamoa faollari (aktivining) jamoa oldiga talab qo'yishi o'quvchilar jamoasi rivojlanishiining qaysi bosqichda kechadi?

A) birinchi bosqichda;

B) ikkinchi bosqichda;

C) uchinchi bosqichda;

D) to'rtinchi bosqichda.

5. Jamoaning jamoa a'zolari oldiga talab qo'yishi o'quvchilar jamoasi rivojlanishing qaysi bosqichda kechadi?

A) birinchi bosqichda;

B) ikkinchi bosqichda;

C) uchinchi bosqichda;

D) to'rtinchi bosqichda.

6. Har bir jamoa a'zosining o'z oldiga talab qo'yishi o'quvchilar jamoasi rivojlanishing qaysi bosqichda kechadi?

A) birinchi bosqichda;

B) ikkinchi bosqichda;

C) uchinchi bosqichda;

D) to'rtinchi bosqichda.

7. Jamoa faolli (aktiv)ning shakllanishi jamoa hayotining qaysi bosqichiga xos xususiyat sanaladi?

A) birinchi bosqichga;

B) ikkinchi bosqichga;

C) uchinchi bosqichga;

D) to'rtinchi bosqichga.

8. Jamoa an'analari nima?

A) jamoa a'zolari birgalikda nishonlaydigan tantanalar;

B) jamoa a'zolarining hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lган sanalar;

C) mazmunida munosabatlar xususiyati va jamoaning ijtimoiy fikri ifodalangan, jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanadigan barqarorlashgan odatlar;

D) barcha javoblar to'g'ri.

## Texnologik karta

### 9-10-mavzular: Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash. Fuqarolik tarbiyasi

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich.</b> <b>O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Savol-javob”, “Insert”, “Zig-zag”, “Reja” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Talabalarni “Savol-javob”, “Insert”, “Zig-zag”, “Reja” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
<b>2-bosqich.</b>	<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>1. Talabalarning ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishga oid bilimlarni baholaydi.</p> <p>2. Talabalar tomonidan ilmiy dunyoqarashning o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy, ekologik va</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>1) ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishga oid bilimlarga egaliklarini namoyish etadilar;</p> <p>2) ilmiy dunyoqarashning o'quvchilarda ma'naviy-</p>

<b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<p>iqtisodiy madaniyat elementlarini tarbiyalashdagi ahamiyatining tushunilish darajasini aniqlaydi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan o'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy zaruriyatining anglanishini o'rghanadi.</p> <p>4. Talabalarda o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash ko'nikmasiga egaliklarini aniqlaydi.</p> <p>5. Test so'rovini tashkil etadi</p>	<p>axloqiy, ekologik va iqtisodiy madaniyat elementlarini tarbiyalashdagi ahamiyatini tushuna olishlarini ko'rsatib beradilar;</p> <p>3) o'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy zaruriyatining anglay olishlari namoyish qiladilar;</p> <p>4) o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash ko'nikmasiga egaliklarini ko'rsatadilar;</p> <p>5) bilimlarni namoyish etadilar</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadiga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

## Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

**1. “Insert” metodi** o’zlashtirilishi ko’zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: 1) kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi; 2) har bir guruhdan ыzlashtirilishi rejelashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi; 3) guruhlar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilar; 4) bayon etilgan fikrlar yozyv taxtasiga yozib boriladi; 5) so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi mantni guruhlarga tarqatadi; 6) guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zları bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi); 7) guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi; 8) guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi; 9) liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar; 10) guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Metodni qo'llashda o'quvchilar qo'yidagi sxemalar bo'yicha faoliyatni tashkil etadilar:

1. Matn guruhlarning fikrlari bilan qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarning natijalarini o'rganish

chog’ida:

Maxsus belgilarning tartib raqamlari	Guruhlarning nomlari			
	Koper nik	Galil ey	Gippo krat	Ibn Sino
1.				
2.				
3.				

**2. “Zig-zag” metodi** o’quvchilar bilan guruh asosida ishslash, mavzuni tezkor va puxta o’zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: 1) o’quvchilarda jamoa (yoki guruhi) bo’lib ishslash ko’nikmasi shakllanadi; 2) mavzuni o’zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

“Zig-zag” metodini qo’llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: 1) sinf o’quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhgaga bo’linadi; 2) yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi; 3) har bir guruhgaga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn, ... va hokazolar) beriladi va uni o’rganish vazifasi topshiriladi; 4) belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar; 5) vaqtini tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o’rganilgan matnga oid asosiy ma’lumotlarni guruhdoshlariga so’zlab beradilar; 6) liderlarning fikri guruh a’zolaridan to’ldirilishi mumkin; 7) barcha guruhlar o’zlariga berilgan matnni puxta o’zlashtirganlaridan so’ng matnlar guruhlararo almashtiriladi; 8) bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi; 9) shu tahlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o’quvchilar tomonidan o’zlashtiriladi.

**3. “Reja” metodi** talabalarda ular tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida ma’lum yo’nalishda pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo’llash talabalardan o’rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o’zlashtirish, asosiy g’oyalarni umumlashtirish va ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo’lishni taqozo etadi. “Reja” metodi asosan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga

yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llaniladi. Rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikni ta'minlash imkoniyatiga egaligi inobatga olinadi.

## **9-10-mavzular: Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash. Fuqarolik tarbiyasi Mashg'ulot uchun materiallar**

### **I. Talabalar uchun topshiriq.**

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishga oid savollarga javob qaytaring.

Bu o'rinda talabalar quyidagi savollarga javob qaytaradilar:

1. "Dunyoqarash" va "ilmiy dunyoqarash" deganda nimani tushunasiz?
2. Aqliy tarbiyani tashkil etishda qanday vazifalar hal qilinadi?
3. Siz qanday fikr dasiz, shaxs tafakkuri darajasini aniqlash mumkinmi?
4. Sizningcha, iqtisodiy munosabatlarni tashkil eta olish uchun ilmiy dunyoqarashga ega bo'lish talab qilinadimi?
5. Iqtisodiy tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi?
6. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzлari qanday ahamiyatga ega?
8. Sizningcha, vatanparvar shaxs qanday sifatlarga ega bo'lishi lozim?
9. O'quvchilarni baynalmilallik ruhida tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
10. Huquqiy tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi?

### **II. Talabalar uchun topshiriq**

Aqliy tarbiyaning o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy, ekologik va iqtisodiy madaniyat elementlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoriting.

Bu o'rinda talabalar kichik guruhlar tarkidida "Insert" metodi vositasida quyidagi tarbiya yo'nalishlarini tashkil etishda ilmiy dunyoqarashning qay darajada ahamiyatga egaligi xususida o'zaro bahslashadilar:

1. Iqtisodiy tarbiya.
2. Ekologik tarbiya.
3. Huquqiy tarbiya.
4. Fuqarolik tarbiyasi.

Guruhlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar yozuv taxtasida qayd etib boriladi. Barcha guruhlar yo'nalishlar bo'yicha fikr bildirganlaridan so'ng har bir guruhdan bildirilgan mulohazalarning eng muhim ikkitasi tanlab olinadi. SHundan so'ng o'qituvchi guruhlarga matn tarqatadi. Ushbu matnlarda qayd etilgan yo'nalishlarda tarbiyani tashkil etishda ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishning ahamiyati yoritiladi. Guruhlar o'zлari bildirgan mulohazalar bilan matn g'oyalari o'rtaida muvofiqlik bor-yo'qligini aniqlaydilar. Mavjud holatni maxsus belgilar yordamida qayd etadilar.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalarning e'tiborlariga quyidagi jadval taqdim etiladi:

	Ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari	Guruhlar fikri	Bildiriladigan fikrlarning ahamiyatlilik darajasi		
			Z	S	?
.	Iqtisodiy tarbiya				
.	Ekologik tarbiya				
.	Huquqiy tarbiya				
.	Fuqarolik tarbiyasi				
Izoh: maxsus belgilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:					
Z – matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa;					
S – matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa;					
? – matn bilan tanishish chog'ida savollar tug'ilsa					

### **III. Talabalar uchun topshiriq.**

O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy zaruriyatini asoslang.

Bu o'rinda talabalar "Zig-zag" metodi yordamida "Fuqarolik tarbiyasi" mavzusi mohiyatini o'qituvchi taqdim etadigan kichik matnlar bo'yicha puxta o'rGANADILAR. Guruhlarga quyidagi kichik matnlar taqdim etiladi:

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifasi.
2. Fuqaro. Fuqarolik va uning mohiyati.
3. O'quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.
4. YOshlarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining asosi.
5. Huquqiy tarbiya.

### **VI. Talabalar uchun topshiriq.**

O'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalashga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqing.

Bu o'rinda talabalar kichik guruhlarda "Reja" metodini qo'llash assosida bir o'quv yiliga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar.

Rejani ishlab chiqishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Talabalarga topshiriqni bajarish uchun quyidagi sxema tavsiya etiladi:

	Tadbir mavzusi	Tadbi r shakli	Tadbirning o'tkazilish muddati	M as'ul sh axs	Tashkil etilish holati
.					
.					
..					

## **V. Talabalar uchun topshiriq**

Mavzu yuzasidan quyidagi test savollariga javob qaytaring:

1. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish omillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A) milliy qadriyatlar;
  - B) ilmiy bilimlar, mavjud fanlar asoslari;
  - C) hayotiy tajriba;
  - D) barcha javoblar to'g'ri.
2. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi, fikrlash ko'nikmasiga egalik, bilimlarni egallashga nisbatan qiziqish va ehtiyojning yuzaga kelganligi tafakkurga xos qanday holatni ifodalaydi?
  - A) tafakkur tezligini;
  - B) tafakkur kengligini;
  - C) tafakkur darajasini;
  - D) tafakkurning boyligini.
3. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish omillarini ko'rsating.
  - A) milliy qadriyatlar;
  - B) ilmiy bilimlar, mavjud fanlar asoslari;
  - C) hayotiy tajriba;
  - D) barcha javoblar to'g'ri.
4. Iqtisodiy ta'lif-tarbiyaning samaradorligini qanday mezonlar bilan aniqlash mumkin?
  - A) iqtisodiyotning rivojlanganligi bilan;
  - B) jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning qaror topganligi bilan;
  - C) ishlab chiqarishda raqobatning yuzaga kelganligi bilan;
  - D) o'quvchilarda iqtisodiy ong va iqtisodiy madaniyat elementlarining shakllanganligi bilan.
5. O'quvchilarining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyatiga egaliklari qanday madaniyat mohiyatini ifodalaydi?

- A) ekologik madaniyat; B) ma'naviy-axloqiy madaniyat;
- C) huquqiy madaniyat; D) iqtisodiy madaniyat.

6. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) fuqarolarda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish qobiliyatini tarbiyalash;
- B) fuqarolarda o'z huquq va burchlarini himoya qila olish ko'nikmasini hosil qilish;
- C) fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish;
- D) to'g'ri javob yo'q.

7. Yoshlarni Vatan himoyasi va mudofaasiga tayyorlash vatanparvarlik tarbiyasining qanday ko'rinishi sanaladi?

- A) milliy vatanparvarlik;
- B) g'oyaviy-siyosiy vatanparvarlik;
- C) harbiy vatanparvarlik;
- D) ma'naviy-axloqiy vatanparvarlik.

8. Huquqiy ta'lim-tarbiyaga oid tayanch tushunchalar qaysi javobda berilgan?

- A) huquqiy me'yor, huquqiy munosabat, huquq sub'ektlari;
- B) huquqiy ong, huquqiy tafakkur, huquqiy madaniyat;
- C) huquq ob'ekti, huquq shakli, huquqiy (normativ) akt;
- D) huquqiy hujjat, huquq tizimi, huquqiy ustqurtma.

9. Shaxs huquqiy madaniyatining tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?

- A) huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik;
- B) huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik;
- C) huquqiy ong, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

## Texnologik karta

### 11-mavzu: O'quvchilarning yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.

#### Estetik va jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi asoslari

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “YUmaloqlangan qor”, “Nima uchun”, “Konseptual jadval”, “Toifalash” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>6. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>7. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>8. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Talabalarni “YUmaloqlangan qor”, “Nima uchun”, “Konseptual jadval”, “Toifalash” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
	<b>Pedagogik vazifalar:</b> <p>1. Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaning umumiyligi mohiyati borasidagi bilimlarini baholaydi.</p> <p>2. Talabalarda nafosat tarbiyasini tashkil etishga oid bilim va</p>	<b>O'quv natijalari:</b> <p>1) ma'naviy-axloqiy tarbiyaning umumiyligi mohiyati borasidagi bilimlarini namoyish etadilar;</p> <p>2) nafosat tarbiyasini tashkil</p>

<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy qism</b> – <b>bilimlarni mustahkam lash</b> <b>bosqichi (55 daqiqa)</b>	ko'nikmalarining shakllanganligini o'rganadi. 3. Talabalar tomonidan estetik va jismoniy tarbiyaning mohiyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilganligini tahlil qiladi. 4. Talabalarda oila tarbiyasini tashkil etish ko'nikmasining shakllanganligini baholaydi. 5. Test so'rovini tashkil etadi	etishga oid bilim va ko'nikmalariga egaliklarini ko'rsatib beradilar; 3) jismoniy tarbiyaning mohiyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalarga egaliklarini namoyish qiladilar; 4) oila tarbiyasini tashkil etish ko'nikmasiga egaliklarini ko'rsatadilar; 5) mavjud bilimlarini namoyish etadilar
<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	1. Talabalarning ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi. 2. Mashg'ulot maqsadiga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi. 3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi. 4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar. 2. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar.. 3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar.. 4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar

### Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

1. “Yumaloqlangan qor” metodi mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda talabalarda guruh va juftlikda ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida

talabalar juftlik, guruh yoki jamoa bo'lib ishlari mumkin.

Ushbu metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) o'rganiladigan mavzu yoki mavzu yuzasidan ma'lum masala tanlanadi; 2) talabalarga tanlangan masala va metodni qo'llash qoidalari tushuntiriladi; 3) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladilar (imkon qadar guruhlarning soni juft raqamlarni tashkil etishi lozim); 4) bajarish uchun har bir guruhga bittadan topshiriq beriladi; 5) guruhlar topshiriqni bajaradilar; 6) guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, tartib raqamlariga ko'ra ikki guruh o'zaro birlashadi (ya'ni 1- va 2-guruh; 3- va 4-guruh); 7) yangidan shakllangan guruhlarda kichik guruhlarda bajarilgan topshiriqlar o'rganiladi; 8) so'ngra barcha guruhlar yagona jamoa bo'lib birlashadilar va katta guruhlarda o'rganilgan masalalar muhokama qilinadi; 8) topshiriqlar yuzasidan umumiy xulosaga kelinadi.

“Yumaloqlangan qor o'yini” metodidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulay.

**2. “Nima uchun” metodi** talabalarda o'rganilayotgan muammo yoki masala mohiyatining yorituvchi sabablarni aniqlash yuzasidan mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar muammo (masala)ning echimini topishga tizimli, ijodiy yondashishlari, shu bilan birga sabablarni tahlil tahlil qila olish talab etiladi. Mashg'ulotlar jarayonida metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) o'qituvchi talabalarni metodning mohiyati va shartlari bilan tanishtiradi; 2) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladilar; 3) o'qituvchi guruhlarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lum masalalarni topshiradi; 4) guruhlar masalaning echimini ifodalashi zarur bo'lgan sxemani yaratadilar; 5) sxenmada muammo (yoki masala)ning yuzaga kelish sabablari aks ettiriladi; 6) guruhlar ishlari jamoada muhokama qilinadi.

Metodni qo'llash shartlari quyidagicha: 1. Sxemada aks etadigan shakllar (aylana, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat yoki uchburchaklar)ni talabalarning o'zları mustaqil tanlaydilar. 2. Sxemaning tarkibiy tuzilishi – mulohazalar zanjirining to'g'ri chiziqli yoki to'g'ri chiziqli emasligi ham talabalar tomonidan belgilanadi.

3. Yo'nalish ko'rsatkichlari talabalarning dastlabki holatdan echimni topishgacha bo'lgan faoliyatlari mazmunini ifodalaydi.

**3. “Konseptual jadval” metodi** talabalarda o'rganilayotgan mavzu, masala yoki muammoni uning ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Metoddan foydalanish jarayonida talabalarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyati rivojlanadi. Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi: 1) o'qituvchi echimi topilishi lozim bo'lgan masalani aniqlaydi; 2) talabalar masala hamda metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladilar; 3) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladilar; 4) guruhlar o'zlariga berilgan topshiriqni baradilar; 5) guruhlar o'z echimlarini jamoa hukmiga havola etadilar; 6) guruhlarning echimlari jamoada muhokama qilinadi.

Talabalarning e'tiborlariga quyidagi namunani tavsiya etish mumkin:

O'rganilayot gan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			

**4. “Toifalash” metodi** talabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muhim xususiyat, jihatlarni aniqlash va ularni ifoda etuvchi ma'lumotlarni birlashtirishga o'rgatadi. Metodni qo'llash jarayonida talabalarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mashg'ulotlar jarayonida ushbu metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) o'qituvchi muhim xususiyatlari aniqlanishi lozim bo'lgan mavzu, masala yoki muammoni aniqlashdi; 2) talabalar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda “toifalash” metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladilar; 3) talabalarga ma'lum topshiriqlar beriladi; 4) guruhlar topshiriqni bajaradilar (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydilar, ularni

jadval yordamida ifodalaydilar); 5) guruuhlar o’z echimlarini jamoa e’tiboriga taqdim etadi; 6) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Metoddan foydalanishda talabalar quyidagilarga e’tiborlarini qaratadilar: 1. Muhim xususiyatlar (toifalar)ni yoritishga nisbatan yagona talab qo’yilmaydi. 2. Guruhlarga bir xil topshiriq berilganda bir guruhning echimi ikkinchi guruhning echimidan farqlanishi mumkin. 3. Talabalarga o’qituvchi tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlar haqida ma’lumot berish mumkin emas, muhim xususiyatlarni izlash jarayoni ham ularning o’zlari tomonidan amalga oshirilishi shart.

## **11-mavzu: O’quvchilarning yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiyasi.**

### **Estetik va jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi asoslari**

#### **Mashg’ulot uchun materiallar**

##### **1. Talabalar uchun topshiriq:**

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari, tarkibiy qismlari, shakl va metodlariga oid savollarga javob bering.

Bu o’rinda “YUmaloqlangan qor” metodi qo’llanilib, talabalar guruhlarga birikadilar, har bir guruh a’zolari o’z navbatida juftliklarga ajraladilar. Talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Axloq nima?
2. “Ma’naviyat” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadi nimadan iborat?
4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadi nima?
5. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o’quvchilarda qanday sifatlar tarbiyalanadi?
6. Ma’naviy-axloqiy tarbiya qanday shakllarda tashkil etiladi?
7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini ko’rsating.
8. Qanday vositalar ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda samarador sanaladi?
9. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani muvaffaqiyatli tashkil etish uchun nimalarga


e'tiborni qaratish lozim?

10. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda milliy qadriyatlar hamda xalq pedagogikasi g'oyalaridan foydalanishning ahamiyatini qanday baholaysiz?

## II. Talabalar uchun topshiriq:

Nafosat tarbiyasining mazmuni, nafosat madaniyatining mohiyati, asosiy xususiyatlari hamda nafosat tarbiyasining vositalari to'g'risida ma'lumot bering.

Bu o'rinda kichik guruqlar tomonidan "Nima uchun" metodi qo'llaniladi. Topshiriqni bajarish uchun talabalarning e'tiborlariga quyidagi sxema tavsiya etiladi:



### **III. Talabalar uchun topshiriq:**

Estetik (nafosat) hamda jismoniy tarbiyaning mohiyati, estetik va jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlarini yoriting.

Topshiriqni bajarishda “Konseptual jadval” metodi qo’llaniladi.

1-topshiriq. Estetik (nafosat) hamda jismoniy tarbiya mohiyatini aks ettiruvchi tayanch tushunchalarni, maqsadi va vazifalarini yoriting.

Ijtimoiy tarbiya yo’nalishlari	Tayanch tushunchalar, tavsiyalar, muhim belgilar		
	Tayanch tushunchalar	Maqsadi	Vazifalari
Estetik (nafosat) tarbiya			
Jismoniy tarbiya			

2-topshiriq. Estetik (nafosat) hamda jismoniy tarbiyaning shakl, metod va vositalarini belgilang.

Ijtimoiy tarbiya yo’nalishlari	Tayanch tushunchalar, tavsiflar, muhim belgilar		
	SHakllari	Metodlari	Vositalari
Estetik (nafosat) tarbiya			
Jismoniy tarbiya			

### **VI. Talabalar uchun topshiriq:**

Topshiriq kichik guruhlarda “Toifalash” metodiga ko’ra bajariladi.

1-topshiriq. Shaxs kamolotiga oila a’zolarining ta’sirini yoriting.

Oila a’zolari		
Ota-onalar	Keksa avlod vakillari (buva-buvilar)	Oilanning boshqa a’zolari (aka-ukalar, opa-singillar)


2-topshiriq. Oila tarbiyasini tashkil etishda davlat, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ko’rsatiladigan ijtimoiy hamda metodik yordam mazmunini ochib bering.

Ijtimoiy sub’ektlar		
Davlat	Ta’lim muassasalar	Ijtimoiy tashkilotlar

## V. Talabalar uchun topshiriq.

Mavzuga oid quyidagi test savollariga javob bering:

- “Axloq” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
  - shaxsni atrof-muhitga, kishilarga nisbatan ijobiy munosabati;
  - ma’naviy-axloqiy ongning rivojlanganlik darajasi;
  - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga solib turadigan qonun-qoidalar majmui;
  - to’g’ri javob yo’q.
- Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari qaysi javobda ko’rsatilgan.
  - o’quvchilarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko’nikma va odatlarini tarkib

toptirish;

- B) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- C) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

3. Estetik tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

- A) shaxsning voqelikka estetik munosabatini shakllantirish;
- B) o'quvchilarni go'zallikni his qilishga o'rgatish;
- C) o'quvchilarda san'at asarlari, shu jumladan, badiiy adabiyotga qiziqishni uyg'otish;
- D) o'quvchilarda tasviriy san'at, jumladan, rassomlik va haykaltaroshlikka oid asarlar mohiyatini tushuna olishga o'rgatish.

4. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- A) go'zallikni sevishga o'rgatish;
- B) tabiiy go'zallikni his qila olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- C) san'at asarlarida ilgari surilgan ma'noni anglashga o'rgatish;
- D) estetik tushunchani hosil qilish, estetik idrok, his-tuyg'u, did va madaniyatni shakllantirish.

5. O'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirish omillarini belgilang.

- A) tabiat, ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- B) tabiiy muhit, kishilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, shaxsning san'at asarlariga bo'lган munosabati;
- C) san'at asarlari, moddiy va ma'naviy boyliklar, moddiy ishlab chiqarish;
- D) tabiat, san'at asarlari, moddiy mahsulotlarning tashqi ko'rinishi.

6. Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa nima deb ataladi?

- A) estetik did;
- B) estetik ehtiyoj;

C) estetik ideal;

D) estetik mulohaza.

7. Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omillar nima deb ataladi?

A) estetik ong;

B) estetik mulohaza;

C) estetik did;

D) estetik ehtiyoj.

8. Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishi nima deb ataladi?

A) estetik did;

B) estetik qiziqish;

C) estetik ong;

D) estetik baho.

9. Jismoniy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

A) o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlash;

B) o'quvchilarning salomatliklarini mustahkamlash;

C) o'quvchilarda jismoniy mashqlarni bajarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

D) o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

10. Jismoniy tarbiyaning vazifalariga nimalar kiradi?

A) o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, ishlash qobiliyatini rivojlantirish;

B) o'quvchilarda yangi harakat turlariga nisbatan ko'nikma va malakalar hosil qilish va ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish;

C) o'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan asosiy harakat sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilarda o'z sog'ligiga ongli munosabatni tarbiyalash;

D) barcha javoblar to'g'ri.

11. Jismoniy madaniyatga egalikni ifodalovchi asosiy tushunchalar qaysilar:

- 1) jismoniy ta'sir; 2) jismoniy harakat ko'nikmalariga egalik; 3) jismoniy mehnat;
- 4) jismoniy kamolot; 5) jismoniy ideal; 6) jismoniy madaniyat; 7) jismoniy jazo?

A) 1,2,4,6;

B) 1,3,4,7;

C) 2,3,4,5;

D) 1,2,5,6.

12. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir.

CHunki o'qimoq, o'qitmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz vujud kerakdir". Ushbu fikr kim tomonidan ilgari surilgan?

A) Alisher Navoiy;

B) Abu Ali ibn Sino;

C) Abdulla Avloniy;

D) YAn Amos Komenskiy.

13. Oila tarbiyasining samaradorligi nima bilan belgilanadi?

A) oilaning moddiy darajasi;

B) oila a'zolarining o'zaro munosabati;

C) oila tarbiyasining ilmiy, pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligi bilan;

D) oilaning ta'lif muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligi.

## Texnologik karta

### 12-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimi (ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lif muassasasi menejmenti)

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Aqliy hujum”, “Qanday”, “Keys-stadi”, “Baliq sekleti” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni kichik guruhlarda ishslash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>6. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>7. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>8. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Talabalarni “Aqliy hujum”, “Qanday”, “Keys-stadi”, “Baliq sekleti” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlardan tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadir.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadir.</p>
<b>2-bosqich.</b>	<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>1. Talabalarning O'zRning “Ta'lif to'g'risida”gi Qonuning mohiyati, ta'lif sohasidagi ta'lif siyosatining asosiy tamoyillari, uzlusiz ta'lif tizimi, turlari va ta'lif muassasasi menejmentiga oid bilimlarini baholaydi.</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>1) mavzuga doir bilimlarni o'zlashtirganliklarini namoyish etadilar;</p> <p>2) ta'lif muassasasi menejmentiga oid bilimlarga egaliklarini ko'rsatadilar;</p> <p>3) ta'lif tizimini boshqarishga</p>

<b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<p>2. Talabalarda ta’lim muassasasi menejmentiga oid nazariy bilimlar shakllanganligini o’rganadi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarishga oid ko’nikma va malakalarni shakllantiradi.</p> <p>4. Talabalarda pedagogik kadrlarni attestasiyadan o’tkazishga oid bilimlarining rivojlanganligini aniqlaydi.</p> <p>5. Test so’rovini tashkil etadi</p>	<p>oid ko’nikma va malakalarga egaliklarini amaliy tarzda ifodalaydilar;</p> <p>4) pedagogik kadrlarni attestasiyadan o’tkazishga oid bilimlarini namoyish qiladilar;</p> <p>5) test asosida mavzuni o’zlashtira olganliklarini ko’rsatadilar</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>1. Talabalarning ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadiga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg’ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg’uloti mavzusini e’lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg’ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadiga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg’ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo’ladilar va o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

### Mashg’ulotda qo’llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

1. “Aqliy hujum” metodi talabalarda mavzu (masala, muammo) xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o’z tasavvurlari va g’oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko’nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag’batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg’ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal echimlarni topish imkoniyati

tug'iladi. Mazkur metod tanlab olingen mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- 1) talabalarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish g'oyalarni yozish borish uchun yozyv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish; muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;
- 2) mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash;
- 3) bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozyv taxtasiga osib qo'yish;
- 4) bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;
- 5) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning talaba tomonidan sodir etilishiga erishiladi;
- 6) talaba tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi;
- 7) talabalarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;
- 8) g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;
- 9) boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;
- 10) yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

Mashg'ulot jarayonida ushbu metoddan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi-yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir talaba o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.
4. Mashg'ulot jarayonida talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan

fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

**2. “Qanday” metodi** talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi. Metodni qo'llash chog'ida talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. 1) o'qituvchi tanlangan mavzu, masalani e'lon qiladi; 2) talabalarni mavzu va metod bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiradi; 3) talabalar guruhlarga biriktiriladilar; 4) guruhlarga topshiriq beriladi; 5) guruhlarni topshiriqni bajaradilar; 6) guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlar bilan jamoa tanishtiriladi; 7) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Muammoning echimi “buni qanday qilish kerak?”, “qanday?” savollariga javob topish asosida ham qilinadi. Muammoni echishda “nima qilish kerak”ligi to'g'risida o'ylanib qolmaslik lozim. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega. Metodni qo'llashda muammoni echish imkoniyatlarigina izlanmay, ularni qo'llash yo'llari ham tadqiq qilinadi.


Metodni qo'llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi: 1) o'ylangan barcha g'oyalar tahlil qilinmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezda qayd etilishi kerak; 2) shakllanayotgan diagramma tugallangan bo'lmay, unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'lsin; 3) agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatib, u muammoning asosiy echimi bo'lishi mumkin; 4) yangi g'oyalar grafik, klaster yoki tasvir ko'rinishida bo'lishidan qat'iy nazar yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngda qayd qilib boriladi va buni talabalarning o'zlari hal etadilar; 5) agar talabalar savollarni qo'g'ri qo'ysadar va masalaning rivojlanish yo'nalishini ob'ektiv belgilay olsalar, u holda echim to'g'ri topiladi.

**3. “Keys-stadi” (ingliz tilida “case” majmua, aniq vaziyat, “stadi” –**

**ta’lim) texnologiyasi** talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o’rganish va tahlil qilishga o’rgatadi.

Ushbu texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usullari va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to’plash va ularni o’rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o’qituvchi va talaba o’rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o’quv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin:



“Keys-stadi” texnologiyasining samaradorligi o’quv jarayonini quyidagi texnologik bosqichlarda tashkil etilishiga bog’liq: 1) keys echimini topish bo’yicha individual ishslash; 2) keys echimini topishda jamoaviy hamkorlikka erishish.


Mazkur texnologiyani qo’llashda individual ishslashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) talabaning keys-stadi texnologiyasi mohiyati va undan foydalanish

shartlari bilan tanishishi; 2) talaba tomonidan taqdim etilgan muammoning o'rganilishi; 3) muammo yuzasidan asosiy va ikkinchi darajali masalalarni ajratish, shakllantirish va asoslash; 4) tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish; 5) taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o'rganish; 6) berilgan muammoni echishning usul va vositalarini aniqlash; 7) taqdim etilgan echimni ta'lif amaliyotiga tadbiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlikda ishslashda quyidagi tartibda ish ko'rildi: 1) muammo va uning echimlari yuzasidan jamoa (guruhi) a'zolari o'zaro fikr almashadilar; 2) masalaning echimi bo'yicha taqdim etilgan variantlar muhokama qilinadi va ularning maqbullik darajasi baholanadi; 3) muammoli vaziyatning echimini ta'minlaydigan aniq dastur ishlab chiqiladi; 4) masalaning echim to'g'risida ma'lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi hamda unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

**4. “Baliq sekleti” metodi** talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Metodni qo'llash chog'ida talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish va ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. 1) o'qituvchi metodni qo'llash sharti bilan talabalarni tanishtiradi; 2) talabalar guruhlarga biriktiriladilar; 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradilar; 4) guruhlar o'z echimlarini jamoaga taqdim etadilar; 5) jamoa guruhlarning echimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradiar:



**12-mavzu: O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi (ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim muassasasi menejmenti)**

**Mashg’ulot uchun materiallar**

**1. Talabalar uchun topshiriq:**


O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, ta’lim sohasidagi ta’lim siyosatining asosiy tamoyillari,uzluksiz ta’lim tizimi mohiyati hamda ta’lim muassasasi menejmenti yuzasidan shaxsiy fikrlaringizni bayon eting.

Bu o’rinda talabalar topshiriqni “Aqliy hujum” metodi yordamida bajaradilar. Talabalarning e’tiborlariga quyidagi savollar havola qilinadi:


1. O’zRning “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni qanday maqsadga xizmat qiladi?
2. Qanday tamoyillar O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatini ifodalaydi?
3. Uzluksiz ta’lim tizimi qanday ta’lim turlaridan iborat?
4. “Menejment” va “ta’lim menejmenti” tushunchalari qanday ma’noni anglatadi?
5. Ta’lim muassasasini boshqarishning asosiy tamoyillarini sanab bering.
6. Pedagogik kengashning ta’lim muassasasida tutgan o’rni qanday?
7. Ta’lim muassasasining rahbarlari qanday vazifalarni bajaradilar?
8. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish qanday tahlilda tashkil etiladi.
9. Pedagog kadrlarni attestasiyadan o’tkazish tartibi qanday?
10. Ta’lim muassasalarida yosh o’qituvchilar bilan ishlash qanday yo’lga qo’yilishi lozim?

**II. Talabalar uchun topshiriq:**

Ta’lim muassasasi menejmentining mazmuni-mohiyatini yoriting.



Bu o'rinda kichik guruqlar tomonidan "Qanday" metodi qo'llaniladi. Topshiriqni bajarish uchun talabalarning e'tiborlariga quyidagi sxema tavsiya etiladi:




Ushbu topshiriqni bajarish uchun talabalarga quyidagi namunani taqdim etish

mumkin:

### **III. Talabalar uchun topshiriq:**

O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasi faoliyatini boshqarish loyihasini tayyorlang.


Bunda talabalar “Keys-stadi” texnologiyasiga ko’ra quyidagi berilgan tushunchalar asosida ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish loyihasini tayyorlaydilar:



1. Nazorat natijalarning tahlili.
2. Tashkiliy-pedagogik nazorat.
3. Masofaviy ta’lim asosida malaka oshirish.
4. Nazorat tizimini ishlab chiqish.
5. Ijtimoiy-psixologik nazorat.
6. Texnologik yondoshuvni qaror toptirish.
7. Kadrlar soni va salohiyati.
8. Ta’lim muassasasining moddiy va sub’ektiv holati.
9. Maqsadni belgilash.
10. Tashkiliy-pedagogik boshqarish tizimini ishlab chiqish.
11. Moddiy-texnik ahvoli.
12. Ta’lim muassasasini boshqarish jarayoni.
13. Pedagoglar malaka darajasini o’rganish
14. Maqsadni aniqlashtirish.

## **VI. Talabalar uchun topshiriq:**

Pedagogik kadrlarni attestasiyadan o’tkazish jarayonining mohiyatini yoriting. Bu o’rinda talabalar kichik guruhlarga birlashgan holda “Baliq sekleti” metodi yordamida pedagogik kadrlarni attestasiyadan o’tkazish jarayonining mohiyatini yoritadilar.



## **V. Talabalar uchun topshirq.**

Mavzuga doir quyidagi test savollariga javob bering:

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) uzlusiz ta'limning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi; ta'lim oluvchilarining teng huquqqa egaliklari; tarbiya jarayonining izchil va uzlusiz amalga oshirilishi;

B) ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzlusizligi va izchilligi; umumiyligini o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

C) ta'lim oluvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarining inobatga olinishi; nazariy bilimlarning oddiyidan murakkabga o'sib borishi; o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik;

D) ta'lim oluvchilarining teng huquqqa egaliklari; ta'limning o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik; uzlusizligi va izchilligi.

2. Akademik lisey qanday ta'lim muassasasi sanaladi?

A) o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqrivojlanadirishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurti;

B) o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqrur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunar yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurti;

C) tabaqalashtirilmagan bo'lsa-da, o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shaklantirishga xizmat qiladigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurti;

D) tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurti.

3. Kasb-hunar kolleji qanday ta'lim muassasasi sanaladi?

A) ta'lim yo'naliшlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida uch yil bo'lган o'rta maxsus o'quv yurti;

B) o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqrur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunar yo'naltirilgan bilim olishlarini

ta'minlaydigan uch yillik o'rtalik maxsus o'quv yurti;

C) o'quvchilarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun turli yo'naliishlarda ta'limni tashkil etishga yo'naltirilgan ko'p yillik faoliyatni olib boradigan o'quv yurti;

D) o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rtalik maxsus kasb-hunar o'quv yurti.

4. Jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lган ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim turi qanday ta'lim sanaladi?

- A) o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- B) mustaqil ta'lim;
- C) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- D) rivojlantiruvchi ta'lim.

5. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash negizida qanday vazifa amalga oshiriladi?

- A) kasbiy bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda yangilash;
- B) kabiylar bilim, ko'nikma hamda malakalarlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratish;
- C) jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lган ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim;
- D) oliy ta'lim yo'naliishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lган tayanch oliy ta'lim.

6. Ta'lim muassasasi kim tomonidan boshqariladi?

- A) uning rahbari hamda jamoat boshqaruvi organi tomonidan;
- B) rektor tomonidan;
- C) direktor tomonidan;
- D) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik maxsus, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan.

7. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash qanday mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi?

A) respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan;

B) faqat respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan;

C) byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan;

D) pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish orqali to'plangan mablag'lar hisobidan.

8. Hozirda ta'lim tizimini boshqarishning qanday shakli qaror topgan?

A) davlat boshqaruvchi;

B) jamoatchilik boshqaruvi;

C) davlat-jamoatchilik boshqaruvi;

D) yakkahokimlik.

9. Quyidagilarning qaysi biri rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat hisoblanadi?

A) "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom;

B) "Akademik lisey, kasb-hunar kollejlari to'g'risida"gi Nizom;

C) ta'lim muassasasining Ustavi;

D) barcha javoblar to'g'ri.

10. Quyidagi qaysi biri ta'lim tizimida jamoatchilik boshqaruvi qaror topganligini ifodalaydi?

A) Pedagogik kengash faoliyatining yo'lga qo'yilganligi;

B) metodik birlashma faoliyatining izchil tashkil etilishi;

C) ta'lim muassasalarida Ota-onalar kengashining tashkil etilganligi;

D) maktab konferensiyasining tashkil etilganligi.

## Texnologik karta

### 13-mavzu: Maxsus (korreksion pedagogika)

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Seminar mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni “Blis so'rov”, “Galereya”, “YAlpi fikriy hujum”, “Zinama-zina” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Talabalarni “Blis so'rov”, “Galereya”, “YAlpi fikriy hujum”, “Zinama-zina” va “Test” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishslash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar.</p> <p>5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar</p>
<b>2-bosqich.</b>	<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>1. Talabalar maxsus pedagogikaning umumiy mohiyati, bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish tamoyillari va metodlaridan xabardorliklarini namoyish etadilar;</p> <p>2. Talabalarning anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlar</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>1) maxsus pedagogikaning umumiy mohiyati, bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish tamoyillari va metodlaridan xabardorliklarini namoyish etadilar;</p> <p>2) anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlar</p>


<b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkam lash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<p>mohiyati, yo’nalishlariga oid nazariy bilimlarini tekshiradi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan o’quvchilarning rivojlanishdagi nuqsonlarni turkumlashtirish, ularning sabab va oqibatlarini yoritish ko’nikma va malakalariga egaliklarini aniqlaydi.</p> <p>4. Talabalarning aqli zaif, nutqida nuqsoni bo’lgan, eshitish, ko’rish qibiliyati va tayanch-harakat apparati buzilgan o’quvchilar bilan ishlash ko’nikmalarga egaliklarini baholaydi.</p> <p>5. Test so’rovini tashkil etadi</p>	<p>mohiyati, yo’nalishlariga oid nazariy bilimlarga egaliklarini ko’rsatadilar;</p> <p>3) Talabalar tomonidan o’quvchilarning rivojlanishdagi nuqsonlarni turkumlashtirish, ularning sabab va oqibatlarini yoritish ko’nikma va malakalariga egaliklarini amaliy tarzda ifodalaydilar;</p> <p>4) Talabalarning aqli zaif, nutqida nuqsoni bo’lgan, eshitish, ko’rish qobiliyati va tayanch-harakat apparati buzilgan o’quvchilar bilan ishlash ko’nikmalarga egaliklarini namoyish qiladilar;</p> <p>5) test asosida mavzuni o’zlashtira olganliklarini ko’rsatadilar</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>1. Talabalarning ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadiga erishish holatini qayd etadi.</p> <p>3. Talabalarning mashg’ulot yuzasidan fikrlarini tinglaydi.</p> <p>4. Navbatdagi mashg’ulot mavzusini e’lon qiladi, mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg’ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadiga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg’ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo’ladilar va o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

### Mashg’ulotda qo’llaniladigan metod va texnologiyalar mohiyati

**1. “Galereya” metodi** talabalarda kichik guruh asosida bir yo’la bir nechta masalani muxokama qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Metodni qo’llash chog’ida guruhning har bir a’zosi taklif etilgan barcha masalalar echimini topishga o’z hissasini qo’shish imkoniyatiga ega bshladi.

Mashg’ulotlar davrida “Galereya” metodidan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1-bosqich – masalani qo’yish (o’qituvchi kichik guruhlarga muayyan muammo (yoki masala)ni hal qilish topshirig’ini beradi; 2-bosqich – har bir guruh o’ziga topshirilgan masalaning echimini topish ustida ishlaydi (bu jarayon 5-10 minut ichida kechadi); 3-bosqich – har bir guruh navbat bilan 2-, 3-hamda 4-guruhgaga topshirilgan muammoning echimini topishga kirishadi (guruhlar harakati doira tarzida soat strelkasi bo’yicha amalga oshiriladi; ma’lum guruh boshqa guruhlarning topshiriq bo’yicha echimlarini o’rganadi, ularga nisbatan o’z munosabatini bildiradi; qo’shimchalar qo’shadi); 4-bosqich – guruh o’z o’rniga qaytadi; 5-bosqich – har bir guruhdan bir nafar talaba guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi va ular asosida muhokama tashkil etiladi; 6-bosqich – muayyan guruh boshqa guruhlarning echimlariga nisbatan o’zlari tomonidan bildirilgan mulohazalarni sharhlaydi; 7-bosqich – guruhlarning fikrlariga ko’ra yakuniy xulosaga kelinadi.

“Galereya” metodini qo’llash jarayonini sxematik ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:



**2. “Yalpi fikriy hujum” texnologiyasi** J.Donal'd Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar talabalardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. Ushbu metod talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta ga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar talabani o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobjiy hal etilishi lozim bo'lgan turli topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobjiy hal etilgach, guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning echimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning echimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

**3. “Zinama-zina” metodi** talabalarda o'rganilayotgan mavzuni kichik

mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida talabalarningzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyati rivojlantiriladi. Metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) o'rganiladigan mavzu (masala, muammo) muayyan qismlarga ajratiladi va ular alohida qog'ozlarda ifodalananadi; 2) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladilar; 3) har bir guruhga muayyan qismdagi matn taqdim etiladi; 4) guruhlar o'zlariga berilgan qism matni bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadilar; 5) belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a'zosi o'zlari bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi; 6) barcha guruhlarning ishlari tinglangach, jamoa tomonidan o'rganilgan mavzuning umumiyo obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozyv taxtasida zinama-zina ko'rinishida joylashtiriladi; 7) o'qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o'rinnarga o'zgartirishlar kiritadi; 8) guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko'ra baholanadi (baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya'ni talabalar o'zlari sifatl deb topgan ishni rangli kartochkalar yordamida belgilaydilar (ish ustiga kartochka yopishtiriladi), eng ko'p kartochkaga ega ishga yuqori ball beriladi).

Metodni qo'llashda talabalar quyidagi shartlarga amal qiladilar: 1) kichik mavzular bo'yicha imkonim boricha ma'lumotlarni to'la bayon eta olishlari lozim; 2) kichik guruhlarning ishlariga baho beradilar.

### **13-mavzu: Maxsus (korreksion pedagogika)**

#### **Mashg'ulot uchun materiallar**

##### **1. Talabalar uchun topshiriq:**

Maxsus (korreksion) pedagogikaning umumiyo mohiyati, bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish tamoyillari va metodlariga oid quyidagi blis-so'rov savollariga javob bering.

1. Maxsus pedagogika qanday fan?

2. Maxsus pedagogikaning sohalarini ko'rsating.
3. Maxsus pedagogikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Maxsus pedagogika kategoriylarini sanab bering.
5. Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan maxsus ishlarning asosiy yo'naliishlari nimalardan iborat?
6. Rivojlanishdagi nuqsonlar qanday turkumlarga bo'linadi?
7. Rivojlanishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va omillari nimalardan iborat?
8. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxislash tamoyillari qaysilar?
9. Psixologik-pedagogik tekshirish metodlarini sanab bering.

### **II. Talabalar uchun topshiriq:**

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogika kategoriylari, yo'naliishlariga oid annotasiyani tayyorlang. Bu o'rinda guruhlar "Galereya" metodi asosida quyidagi mavzularda annotasiya tayyorlaydilar.

- 1-guruh. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish.
- 2-guruh. Anomal bolalarni tarbiyalash.
- 3-guruh. Korreksiya va korreksion-tarbiyaviy ishlar.
- 4-guruh. Kompensasiya va ijtimoiy reabilitasiya.
- 5-guruh. Ijtimoiy adaptasiya va oilaviy tarbiya reabilitasiyasi.

### **III. Talabalar uchun topshiriq:**

O'quvchilarning rivojlanishidagi nuqsonlarning turkumlari, ularning sabab va oqibatlarini yoriting. Bu o'rinda talabalar "YAlpi fikriy hujum" texnologiyasi yordamida talabalar o'quvchilarning rivojlanishidagi nuqsonlarni turkumlashtirish, ularning sabab va oqibatlarini yoritadilar. Guruhlarda ishslash uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarning turkumlari			1. 2.  ...	
Nº	Nuqsonlarning turlari	Kelib chiqish sabablari	Oqibatlari	Olib boriladigan pedagogik-metodik

				ishlarning shakllari
1.				
2.				
3.				
...				

## VI. Talabalar uchun topshiriq:

Aqli zaif, nutqida nuqsoni bo’lgan, eshitish, ko’rish qobiliyati hamda tayanch-harakat apparati buzilgan o’quvchilar bilan ishlashga oid xarita, psixologik trening bayonnomasi va dasturni tayyorlang. Bu o’rinda talabalar “Zinama-zina” metodini qo’llash orqali talabalar aqli zaif, nutqida nuqsoni bo’lgan, eshitish, ko’rish qobiliyati hamda tayanch-harakat apparati buzilgan o’quvchilar bilan ishlashga oid xarita, psixologik trening bayonnomasi va dasturini ishlab chiqadilar. Topshiriqni bajarish uchun talabalarga quyidagi sxemalar tavsiya etiladi (izoh: pedagogik-psixologik dasturni tayyorlashda talabalar o’zlari yaqindan bilgan va anomal xususiyatlarga ega shaxslarni protatip sifatida tanlashlari mumkin).

### Psixologik-pedagogik xarita

1. Tarbiyalanuvchining kodi \_\_\_\_\_

2. Tarbiyalanuvchining I.F.O. \_\_\_\_\_

3. Tarbiyalanuvchining \_\_\_\_\_ yoshi

4. Tarbiyalanuvchi shaxsida aks etuvchi psixologik muammolar\_\_\_\_\_

5. Psixologik xizmat turi \_\_\_\_\_

6. Psixologik xizmat shakli \_\_\_\_\_

7. Mashg’ulotlar soni \_\_\_\_\_

7. Psixologik xizmat ko’rsatish vositasi \_\_\_\_\_

8. Psixologik xizmat ko’rsatish muddati va bosqichlari \_\_\_\_\_

9. Metodik tavsiyalar \_\_\_\_\_

10. Psixologik o’zgarishlar dinamikasi \_\_\_\_\_

11. Tavsiyalarning yakuniy tavsifi (samaradorligi) \_\_\_\_\_

(imzo)

Amaliyotchi-psixologning imzosi

### Psixologik trening bayonnomasi

Kod

Tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi \_\_\_\_\_

Tarbiyalanuvchining

yoshi

Sana \_\_\_\_\_

Psixologik trening vaqtি\_\_\_\_\_

Psixologik trening maqsadi \_\_\_\_\_

Metodlari va texnologiyasi\_\_\_\_\_

Psixologik trening bosqichlari	Psixologik treningning borishi	Eslatma

Xulosalar

(imzo)

Amaliyotchi-psixologning I.O.F.

### Pedagogik-psixologik dastur

Tarbiyalanuvchining I.O.F.\_\_\_\_\_

YOshi\_\_\_\_\_ Ta'lif muassasasida ta'lif olayotgan davri \_\_\_\_\_

Tashhisи \_\_\_\_\_

Psixologik holatiga berilgan baho \_\_\_\_\_

Bilish darajasi:

O'quv fanlarini o'zlashtira olishi \_\_\_\_\_

Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash malakasi \_\_\_\_\_

Ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi \_\_\_\_\_

Diqqati:

Xotira kuchi \_\_\_\_\_

Tafakkur kuchi \_\_\_\_\_

Xayol kuchi

---

Faoliyati:

Harakat usullari \_\_\_\_\_

Maqsadga yo'nalganligi \_\_\_\_\_

Maqsadga intiluvchanligi \_\_\_\_\_

Faoliyat samaradorligi \_\_\_\_\_

Samarasiz \_\_\_\_\_

Faoliyatda izchillik bo'lmaslik \_\_\_\_\_

Xatti-harakat:

Umumiy harakatlari \_\_\_\_\_

Odatlari \_\_\_\_\_

Mimik harakatlar \_\_\_\_\_

Pantomimik harakatlar \_\_\_\_\_

Qo'l, oyoq va gavda harakatlari \_\_\_\_\_

Nutq:

Faol \_\_\_\_\_

Sust \_\_\_\_\_

O'yin:

Xarakter va mazmuni \_\_\_\_\_

Ishtirok darajasi \_\_\_\_\_

Hissiy-irodaviy sifatlari:

Kirishimlilik \_\_\_\_\_

Rag'bat yoki maqtovga munosabati

---

Xalq-atvor xususiyatlari:

Tengdoshlari bilan \_\_\_\_\_

Kattalar bilan \_\_\_\_\_

Faoliyat va o'yin chog'ida \_\_\_\_\_

O'yin chog'ida

---

Muloqot chog'ida

---

Ta'lim jarayonida \_\_\_\_\_

Psixologik xizmat ko'rsatish vaqtida \_\_\_\_\_

**V. Test so'rovi savollari:**

1. Anomal bolalarda pedagogik usul va chora-tadbirlar tizimi yordamida psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish (qisman yoki to'la) tushunchasi nima deb ataladi?

A) reabilitasiya;

V) korreksiya;

S) kompensasiya (o'rnini to'ldirish);

D) moslashtirish.

2. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish, anomal bolalarni tarbiyalash, korreksion-tarbiyaviy ishlar, kompensasiya, ijtimoiy moslashtirish, oilaviy tarbiya kabi tushunchalar nimani ifodalaydi?

A) korreksion pedagogika tamoyillarini;

V) korreksion pedagogika vazifalarini;

S) korreksion pedagogika kategoriylarini;

D) korreksion pedagogika metodlarini.

3. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy maqsadi nima?

A) shaxsning fiziologik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish;

V) shaxs ruhiyatidagi buzilishlarni bartaraf etish;

S) belgilangan (normal) va anomal (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirish;

D) shaxsda kuzatilayotgan ruhiy va jismoniy og'ishlarni bartaraf qilish.

4. “Kompensasiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

- A) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o’rnini to’ldirish yoki qayta qurish;
- V) organizmning fiziologik-biologik o’sishini tezlashtirish;
- S) belgilangan (normal) va anomal (mavjud kamchilik) faoliyat o’rtasidagi nomuvofiqlikni yo’qotish yoki kamaytirish;
- D) anomal bolalarmi davolash va parvarishlash orqali ularni ijtimoiy jamiyatga moslashtirish.

5. Ijtimoiy adaptasiya negizida qanday vazifa hal qilinadi?

- A) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o’rnini to’ldirish yoki qayta qurish;
- V) anomal bolalarning individual va guruhli hulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta’minlash;
- S) belgilangan (nomal) va anomal (mavjud kamchilik) faoliyat o’rtasidagi nomuvofiqlikni yo’qotish yoki kamaytirish;
- D) shaxsda kuzatilayotgan ruhiy, jismoniy, pedagogik og’ishlarni bartaraf qilish.

6. O’rta asr Evropasida ruhiy nuqsonli shaxslarga qanday munosabat bildirilgan?

- A) cherkovlar tomonidan ularga g’amxo’rlik ko’rsatilgan;
- V) ular uchun maxsus muassasalar tashkil etilib, davolash ishlari olib borilgan;
- S) “Qizil xoch” tashkiloti tomonidan kasallik sabablari o’rganilib, ular bartaraf etilgan;
- D) yovuz kuchlarning namoyon bo’lishi sifatida gulxanida yondirilgan.

7. Aqli zaiflar bilan ishlash tamoyili kim tomonidan asoslangan?

- A) Rene Dekart;
- V) Filipp Pinel;
- S) Iogan Pestalossi;

D) Al'fred Bine.

8. Korreksion (maxsus) pedagogikaning qaysi sohasi nutq buzilishlarini o'rghanish, oldini olish va tuzatish bilan shug'ullanadi?

a) surdopedagogika;

v) oligofrenopedagogika;

s) tiflopedagogika;

d) defektologiya;

e) logopediya.

9. Aqli zaiflikning qanday darajalari farqlanadi?

A) yuqori, o'rta, past;

V) sezilmas, o'rtacha, og'ir va chuqur;

S) ijobjiy, qisman ijobjiy, saliy, qisman salbiy;

D) o'ta yuqori, yuqori, o'rta, quyi.

10. Logopedyada nutqiy buzilishlar qanday turlarga ajratiladi?

A) qisman nutqiy buzilish, to'la nutqiy buzilish;

V) duduqlanish, soqovlik;

S) tibbiy-psixologik nutqiy buzilish, psixologik-pedagogik nutqiy buzilish;

D) orttirilgan nutqiy buzilish, tug'ma nutqiy buzilish.

11. Qulog'i og'irlik qanday turlarga ajratiladi?

A) qisman nutqiy buzilish, to'la nutqiy buzilish;

V) duduqlanish, soqovlik;

S) nasliy, tug'ma va kelib chiqqan (orttirilgan);

D) orttirilgan nutqiy buzilish, tug'ma nutqiy buzilish.

12. Tiflopedagogika nimani o'rghanadi?

A) ko'rish nuqsoniga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini;

V) nutqiy nuqsonga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini;

S) eshitish nuqsoniga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini;

D) tayanch-harakat apparati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini.

# LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI


## Texnologik karta

### 1-mavzu: O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi mazmuni

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Juftliklar va kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni juftlik va kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>5. Talabalarning individual, juftlik kichik guruhlarda ishlash faoliyatlarini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadilar.</p> <p>3. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Topshiriqlarni bajarishda tengdoshlariga ko'maklashadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha</p>

	<p>natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada boyitadilar</p>
<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkam lash bosqichi (55 daqiqa)</b></p>	<p>1. Talabalarda mavzuga oid tayanch tushunchalarning ma'nosini yorituvchi kartokchalar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantiradi va ularning faoliyatini baholaydi.</p> <p>2. Talabalarning o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni bo'yicha jadvallarni shakllantirish ko'nikmasiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi va ko'nikmalarga egalik darajasini o'rganadi.</p> <p>3. Talabalarda komp'yuter yordamida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmunini yorituvchi sxemani yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi va ularni baholaydi.</p> <p>4. Talabalarning komp'yuterda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmunini yorituvchi slaydni tayyorlash ko'nikmasiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi va ko'nikmalar darajasini tahlil qiladi.</p> <p>5. Talabalarda 9-sinf bitiruvchisini akademik lisey va kasb-hunar kollejga to'g'ri yo'naltirish va bu maqsadda tavsiyanoma tayyorlash ko'nikmasini hosil qiladi va</p>	<p>1. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning ma'nosini yorituvchi kartokchalar tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>2. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmuni bo'yicha jadvallarni shakllantirish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.</p> <p>3. Komp'yuter yordamida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmunini yorituvchi sxemani yaratish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Komp'yuter yordamida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi mazmunini yorituvchi slaydni tayyorlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.</p> <p>5. 9-sinf bitiruvchisini akademik lisey va kasb-hunar kollejga to'g'ri yo'naltirish va bu maqsadda tavsiyanoma tayyorlash</p>

	baholaydi	ko'nikmasini o'zlashtiradilar
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotni tashkil etish yuzasidan fikr bildiradilar.</p> <p>4. Navbatdagi mashg'ulot mavzusidan xabardor bo'lib, topshiriqni yozib oladilar</p>

### **1-mavzu: O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi**

#### **Mashg'ulot uchun materiallar**

#### **I. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan kartochkalar:**

**Ўрта маҳсус қасб-хунар таълими**

**Ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими мақсади**

**Академик лицейлар**

**Касб-хунар колледжлари**

## **II. Talabalarga taqdim etiladigan jadvallar:**

1. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari to'g'risida ma'lumot bering.


Akademik liseylar	Kasb-hunar kollejlari
1.	1.
2.	2.
...	...

2. Respublika akademik liseylari va kasb-hunar kollejlarida ta'lim beriladigan yo'nalishlar va ixtisosliklarni ko'rsating.


Akademik liseylar	Kasb-hunar kollejlari
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

## **III. Talabalarga taqdim etiladigan sxemalar:**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi vazifalarini belgilang.



2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumiylazmuni yoriting.



Ўрта махсус, касб-хунар таълимининг умумий моҳияти

#### **IV. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan slaydlar:**

1-слайд

2-слайд

...

10 (12, 14)-слайд

#### **V. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan 9-sinf bitiruvchisini akademik lisey va kasb-hunar kollejga yo'naltiruvchi tavsiyanoma:**

Тошкент шаҳри Мирзо Улугбек туманидаги 121-мактабнинг 9-синф битириувчиси Комилжонов Фарруҳга

#### **ТАВСИФНОМА**

Ўқувчининг ўзига хос (билиш, шахсий-хиссий сифатлари, психологик) хусусиятлар ва муайян касб ёки хунар асосларини ўрганишга бўлган лаёқати, интилиши, қизиқиши ҳамда бошқалар тўғрисидаги маълумотлар баён этилади

Таълим муассасаси раисининг имзоси  
Амалиётчи-психологнинг имзоси

## Texnologik karta

### 2-mavzu: Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari.

#### Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida

Ish bosqich lari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O’quv mashg’uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Laboratoriya mashg’ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni topshiriqlarni bajarish va komp’yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>4. Kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarning individual, kichik guruhlarda ishlash faoliyatlarini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg’ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg’ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O’qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Topshiriqlarni bajarish va komp’yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>3. Komp’yuter yordamida sxema va texnologik xarita tayyorlash ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>4. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko’rsatadilar.</p> <p>5. Topshiriqlarni tengdoshlari bilan hamkorlikda bajarish ko’nikmalarini o’zlashtiradilar.</p> <p>6. Mavzu bo’yicha o’zlashtirgan nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini yanada boyitadilar</p>
	<p>1. Talabalarda mavzuga oid tayanch tushunchalarning ma’nosini yorituvchi kartokchalar tayyorlash ko’nikmalarini shakllantiradi va ularning faoliyatini</p>	<p>1. Mavzuga oid tayanch tushunchalarning ma’nosini yorituvchi kartokchalar tayyorlash ko’nikmalarini</p>

	<p>baholaydi.</p> <p>2. Talabalarda ta’limni tashkil etishning tarixiy shakllariga oid annotasiya tayyorlash</p> <p>ko’nikmalarining hosil bo’lishini ta’minlaydi.</p> <p><b>2-bosqich.</b></p> <p><b>Asosiy qism – bilimlarni mustahkam lash bosqichi (55 daqiqa)</b></p> <p>3. Topshiriqni komp’yuter yordamida bajarilishini ta’minlash orqali talabalarda zamonaviy ta’lim turlariga bo’lgan munosabatni bayon etish, shaxsiy fikrni ilmiy asoslash ko’nikmalarini shakllantiradi va baholaydi.</p> <p>4. Komp’yuter vositasida talabalarda sinf-dars tizimi mohiyatini yorituvchi sxemani yarata olish ko’nikmasini rivojlantiradi va mavjud ko’nikmalar darajasini baholaydi.</p> <p>5. Talabalarda zamonaviy dars mashg’ulotining texnologik xaritasini yaratish ko’nikmasini rivojlantiradi va amaliy ko’nikmalar darajasini aniqlaydi</p>	<p>o’zlashtiradilar.</p> <p>2. Ta’limni tashkil etishning tarixiy shakllari yuzasidan annotasiya tayyorlash ko’nikmasiga ega bo’ladilar.</p> <p>3. Komp’yuter yordamida zamonaviy ta’lim turlariga bo’lgan munosabatni bayon etish, fikrni ilmiy asoslash ko’nikmalari o’zlashtiriladi.</p> <p>4. Komp’yuter yordamida sinf-dars tizimi mohiyatini yorituvchi sxemani yarata olish ko’nikmalari rivojlanadi.</p> <p>5. Zamonaviy dars mashg’ulotining texnologik xaritasini yaratish ko’nikmalariga egaliklarini namoyish etadilar</p>
	<p>1. Talabalarning mashg’ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p><b>3-bosqich.</b></p> <p><b>Yakuniy qism (10 daqiqa)</b></p> <p>3. Talabalarning mashg’ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi mashg’uloti mavzusini</p>	<p>1. Mashg’ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo’ladilar.</p> <p>2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg’ulotni tashkil</p>

	e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	etish yuzasidan fikr bildiradilar. 4. Navbatdagi mashg'ulot mavzusidan xabardor bo'lib, topshiriqni yozib oladilar
--	--	---

## **2-mavzu: Ta'limga tashkil etish turlari va shakllari.**

### **Dars – ta'limga tashkil etishning asosiy shakli sifatida**

#### **Mashg'ulot uchun materiallar**

#### **I. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan kartochkalar:**

Таълим турлари

Таълим шакллари

Таълимни ташкил этиш босқичлари (“Авесто” ғояларига кўра)

#### **II. Talabalariga annotasiya tayyorlash uchun taqdim etilgan tushunchalar:**

1. Ibtidoiy ta'limga.
2. Qadimgi yunon va rim ta'limi.
3. O'rta asr ta'limi (sxolastik va dogmatik ta'limga).
4. Sinf-dars tizimi.

#### **III. Talabalariga taqdim etiladigan topshiriqlar:**

1. Zamonaviy ta'limga turlarini sanab o'ting.
2. Muayyan zamonaviy ta'limga turi yuzasidan shaxsiy munosabatingizni quyidagi sxema asosida yoriting:

Zamonaviy ta'limga turi (masalan, “Rivojlantiruvchi ta'limga”)ning mohiyati	
Afzallikkali	Kamchiliklari
1.	1.
2.	2.
...	...
Xulosa:	


Bu o'rinda har bir guruh zamonaviy ta'limning muayyan turi yuzasidan o'z munosabatlarini bayon qiladilar. Talabalar e'tiborlariga quyidagi zamonaviy ta'lim turlari havola etiladi:

1. Muammoli ta'lim.
2. Modul ta'limi.
3. Dasturiy ta'lim.
4. Tabaqalashtirilgan ta'lim.
5. Komp'yuter ta'limi.
6. Rivojlantiruvchi ta'lim.
7. Hamkorlik ta'limi.
8. Individual ta'lim.
9. Mustaqil ta'lim.
10. Interfaol ta'lim.

#### **IV. Talabalar tomonidan tayyorlanadigan sxemalarning namunalari:**


##### **1. “Sinf-dars tizimi”ning muhim xususiyatlari:**

**Мухим хусусиятлар**



Синф-дарс тизимиning ўзига хос хусусиятлари

## 2. “Sinf-dars tizimi”ning umumiyligi andozasi:



### V. Talabalarga beriladigan topshiriqlar:

1. Dars mashg'uloti texnologik xaritasining sxemasini yarating.
2. Quyidagi andoza asosida darsning umumiyligi mohiyatini yoriting:

Dars mavzusi:		
Dars vaqtি:	Dars shakli:	
Darsning davomiyligi:		
Darsning maqsadi:		
Darsning vazifalari:	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.</li> <li>2.</li> </ol>	

3.

4.

5.

...

Kutilayotgan natija:

Darsda qo'llaniluvchi metodlar:

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

8.

Didaktik vositalar:

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

8.

Ishtirokchilar soni:

... (1 nafar),

... (30 nafar)

Dars jarayonining bosqichlari:

1.

2.

3.

...

Dars jarayoni va natijalarining tahlili:

## Texnologik karta

### 3-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari

<b>Ish bosqich lari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>4. Juftliklar va kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni juftlik va kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>5. Talabalarning individual, juftlik kichik guruhlarda ishlash faoliyatlarini nazorat qilib boradi.</p> <p>6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>7. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqni tinglaydilar.</p> <p>2. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadir.</p> <p>3. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Juftliklar va kichik guruhlardan tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Topshiriqlarni bajarishda tengdoshlariga ko'maklashadir.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada boyitadilar</p>
	<p>1. Talabalar tomonidan tarbiyaning umumiy metodlariga oid tayanch tushunchalar o'zlashtirilishini aniqlaydi.</p> <p>2. Talabalarda o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzish</p>	<p>1. Mavzuga oid tayanch tushunchalarining ma'nosini yorituvchi slaydlar tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>2. o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzish ko'nikmasiga</p>

	<p><b>2-bosqich.</b></p> <p><b>Asosiy qism</b> – <b>bilimlarni mustahkam lash</b></p> <p><b>bosqichi (55 daqiqa)</b></p> <p>ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi.</p> <p>3.Talabalarda tarbiyalanuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>ko'nikmalarini hosil qiladi.</p> <p>4. Komp'yuter yordamida talabalarning tarbiyalanuvchi yosh xususiyatiga oid pedagogik-psixologik tavsifnomani tayyorlash ko'nikmalariga egaliklarini aniqlaydi.</p> <p>5. Talabalar tomonidan “O'quvchilarning kiyinish madaniyati” mavzusidagi munozara loyihasi (texnologik pasporti)ning tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitni yaratadi</p>	<p>ega bo'ladilar.</p> <p>3. Tarbiyalanuvchilar yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Komp'yuter yordamida tarbiyalanuvchi yosh xususiyatiga oid pedagogik-psixologik tavsifnomani tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.</p> <p>5. “O'quvchilarning kiyinish madaniyati” mavzusidagi munozara loyihasini tayyorlash ko'nikmasini o'zlashtiradilar</p>
	<p><b>3-bosqich.</b></p> <p><b>Yakuniy qism</b></p> <p><b>(10 daqiqa)</b></p> <p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi, natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishslash uchun topshiriq</p>	<p>1. O'quv faoliyatları qanday ekanligidan xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi, natijarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotni tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar.</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor</p>

	beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi	bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar
--	--	--

### **3-mavzu: Tarbiyaning umumiyl metodlari**

#### **Mashg'ulot uchun materiallar**

##### **I. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Tarbiya metodlari to'g'risida ma'lumot beruvchi slaydlarni yarating.

1-слайд

2-слайд

3-слайд

4-слайд

5-слайд

6-слайд

7-слайд

8-слайд

##### **II. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Quyidagi jadvaldan foydalangan holda shaxsingiz misolida o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzing.

Xarakterimga xos nuqsonlar	Nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari	Muddati
1.	1.	1.
2.	2.	2.

3.	3.	3.
4.	4.	4.
5.	5.	5.
...	...	...

### **III. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda qo’llaniladigan tarbiya metodlarini jadval yordamida ifodalab, ularning afzalliklarini yoriting.

Turli yoshdagi shaxslar	Maqbul tarbiya metodlari	Ularning afzalliklari
Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar (3 yoshdan 6 (7) yoshgacha bo’lgan bolalar)		
Boshlang’ich sinf o’quvchilari (6 (7) yoshdan 11 (12) yoshgacha bo’lgan bolalar)		
O’smirlar (12 yoshdan 15 yoshgacha bo’lgan o’quvchilar)		
O’spirinlar (15 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan o’quvchilar)		
YOshlar (18 yoshdan 35 yoshgacha bo’lgan shaxslar)		

#### **IV. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Muayyan yoshdagi tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatiga oid pedagogik-psixologik tavsifnomalar tayyorlang (mazkur topshiriqni bajarish uchun talabalar kichik guruhlarga biriktiriladilar; har bir guruh muayyan yoshdagi tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini yorituvchi tavsifnomalarni tayyorlaydilar; tavsifnomada tarbiyalanuvchilarining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ular shaxsini rivojlantirish yo'lida olib boriladigan pedagogik chora-tadbirlar, qo'llaniladigan metodlarning mohiyati jadvalda yoritiladi), bunda quyidagi jadvaldan foydalaning:

Guruhsiz	Turli yoshdagi shaxslar	Psixologik-pedagogik tavsifnomalar
1-guruh	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar	
2-guruh	Boshlang'ich sinf o'quvchilari	
3-guruh	O'smirlar	
4-guruh	O'spirinlar	
5-guruh	YOshlar	

Psixologik-pedagogik tavsifnomani tayyorlashda talabalar quyidagi andozadan foydalanishlari mumkin:

1. Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar
2. Oilaviy ahvoli.
3. Shaxs xarakterida aks etuvchi sifatlar
4. Shaxs xarakterida aks etuvchi salbiy nuqsonlar
5. Shaxsning jamoadagi o'rni va mavqeい.
6. Atrofdagilar bilan munosabati.
7. Bilim olishga bo'lgan munosabati.
8. Xulosa (shaxs qiyofasida aks etadigan ijobiy sifatlarni boyitish va salbiy nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan metodlarni taklif qilish).

## V. Talabalarga beriladigan topshiriq:

“O’quvchilarning kiyinish madaniyati” mavzusidagi munozaraning loyihasi (texnologik pasporti)ni tayyorlang.

Tadbirga ajratilgan vaqt –	Talabalar soni –
<b>Ma’naviy-ma’rifiy tadbir shakli</b>	
O’quv mashg’uloti ning tarkibiy tuzilmasi	1. 2. 3. 4. 5. 6. 7.
O’quv mashg’ulot ning maqsadi	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b>
1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8. 9. 10.	1) 2) 3) 4) 5) 6) 7) 8) 9) 10)
<b>Ta’lim metodlari</b>	
<b>Ta’limni tashkil etish shakli</b>	

<b>Didaktik vositalar</b>	
<b>Ta'limni tashkil etish sharoiti</b>	
<b>Nazorat</b>	

### Texnologik karta

**4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi (ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lim muassasasi menejmenti)**

<b>Ish bosqich lari va vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich. O'quv mashg'uloti ning tashkiliy- tayyorgarli k bosqichi (15 daqiqa)</b>	<p>1. Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi.</p> <p>2. Talabalarni faollikka undaydi.</p> <p>3. Talabalarni tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>4. Juftliklar va kichik guruhlarni shakllantiradi.</p> <p>5. Talabalarni juftlik, kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi.</p> <p>6. Talabalarning individual, juftlik kichik guruhlarda ishlash faoliyatlarini nazorat qilib boradi.</p> <p>7. Kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>8. Mashg'ulotni yakunlaydi</p>	<p>1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar.</p> <p>2. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash shartlari bilan tanishadilar.</p> <p>3. Tarqatma materiallar va komp'yuter bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.</p> <p>4. Juftliklar va kichik guruhlar tarkibida faollik ko'rsatadilar.</p> <p>5. Topshiriqlarni bajarishda tengdoshlariga ko'maklashadilar.</p> <p>6. Mavzu bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini</p>

		boyitadilar
<b>2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkam lash bosqichi (55 daqiqa)</b>	<b>Pedagogik vazifalar:</b>  1. Talabalarning bilimlarini boyitadi. 2. Talabalarning bilimlarini mustahkamlaydi. 3. Talabalarning bilimlari darajasini o’rganadi. 4. Talabalarning bilimlarini mustahkamlaydi. 5. Talabalarning tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini baholaydi. 6. Talabalarning tushunchalarini boyitadi. 7. Talabalarni tanishtiradi. 8. Talabalarning ko’nikmalariga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. 9. Talabalarning bilimlarini mustahkamlaydi	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b>  1) talabalar sxema asosida topshiriq mazmunini ochib beradilar; 2) talabalar bilimlarini namoyish etadilar; 3) talabalar mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar 4) talabalar komp’yuter yordamida sharh tayyorlash ko’nikmasini o’zlashtiradilar; 5) talabalar izohli lug’atni tayyorlaydilar; 6) talabalar klasterni yaratish ko’nikmasini o’zlashtiradilar; 7) talabalar klaster tayyorlash ko’nikmasiga ega bo’ladilar; 8) talabalarning bilimlari mustahkamlanadi; 9) talabalar ta’lim muassasasining metodik birlashmasi faoliyatiga oid bilimlarini namoyish etadilar
<b>3-bosqich. Yakuniy qism</b>	1. Talabalarning mashg’ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi. 2. Mashg’ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi. 3. Talabalarning mashg’ulot	1. Mashg’ulotdagi ishtiroklaridan xabardor bo’ladilar. 2. Mashg’ulot maqsadi va natijaga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar. 3. Darsni tashkillashtirish

<b>(10 daqiqa)</b>	yuzasidan fikrlari bilan tanishadi. 4. Navbatdagi seminar mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholash mezonlari bilan tanishtiradi	bo'yicha fikr bildiradilar. 4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar, o'qituvchi bergen topshiriqni yozib oladilar
--------------------	--	--

**4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi**  
**(ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.**  
**Ta'lim muassasasi menejmenti)**  
**Mashg'ulot uchun materiallar**


**I. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni mazmunini modul ko'rinishida yoriting.

Bu o'rinda talabalarga quyidagi tushunchalar taqdim etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
2. Umumi qoidalar (8 ta modda; 1-8-moddalar).
3. Ta'lim tizimi va turlari (11 ta modda; 9-19-moddalar).
4. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish (5 ta modda; 20-24-moddalar).
5. Ta'lim tizimini boshqarish (5 ta modda; 25-29-moddalar).
6. Yakunlovchi qoidalar (5 ta modda; 30-34-moddalar).
7. Tarkibiy tuzilishi (5 ta bo'lim, 34 ta modda).
8. Qabul qilingan vaqt.

Mazkur topshiriqni bajarish uchun talabalar e'tiboriga quyidagi sxema havola etiladi:



## **II. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini quyidagi sxemalarda ifodalang:



### **III. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Slaydlar yordamida uzluksiz ta’lim turlari va ularning faoliyatim mazmunini yoriting.

1-слайд

2-слайд

3-слайд

4-слайд

5-слайд

...

### **IV. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Komp’yuter yordamida rivojlangan xorijiy mamlakatlar misolida jahon ta’lim tizimi to’g’risida sharh tayyorlang.

Bunda talabalarning e’tiborlariga quyidagi jadval taqdim etiladi:


Jahon ta’lim tizimi			
№	Mamlakatlar	Ta’lim turlari	Ta’lim tizimiga oid asosiy xususiyatlar
1.	AQSH		
2.	Yaponiya		
3.	Fransiya		
4.	Germaniya		
5.	Buyuk Britaniya		
6.	Janubiy		

	Koreya		
7.	Rossiya		
8.	Misr		
...	...		

## V. Talabalarga beriladigan topshiriq:

“Menejment” hamda “ta’lim menejmenti” tushunchasi mohiyatini yorituvchi izohli lug’at tayyorlang.

Bunda talabalar quyidagi sxema asosida ishlari mumkin:




## VI. Talabalarga beriladigan topshiriq:

O’zR uzluksiz ta’lim tizimini boshqaruv organlari hamda ularning faoliyatiga oid klasterni yarating.

Klasterni yaratish uchun talabalarning e’tiborlariga quyidagi tayanch tushunchalar havola etiladi:

- 1) O’zR Vazirlar Mahkamasi;
- 2) O’zR Xalq ta’limi vazirligi;
- 3) O’zR Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi;
- 4) Respublika davlat test markazi;
- 5) Respublika Ta’lim markazi;

- 6) Respublika o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi;
- 7) viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari;
- 8) viloyatlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari;
- 9) shaharlar xalq ta'limi bo'limlari;
- 10) shaharlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bo'limlari;
- 11) tumanlar xalq ta'limi bo'limlari;
- 12) tumanlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bo'limlari.



## **VI. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Ta'lim muassasasining ichki boshqaruviga doir ko'rgazmali qurol tayyorlang.

Ko'rgazmali qurolni tayyorlashda quyidagi tayanch tushunchalardan foydalanish mumkin: ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish; maqsadni qo'yish va rejalashtirish; tashkil qilish; maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish; tartibga solish; kundalik tahlil; tizimli tahlil; yakuniy tahlil; muddatli boshqarish; yillik boshqarish; yakuniy boshqarish; muddatli rejalashtirish; yillik rejalashtirish; yakuniy rejalashtirish; tizimlilik; ob'ektivlik; doimiylik; to'ldiruvchanlik..

## **VII. Talabalarga beriladigan topshiriq:**


Ta'lim muassasalari pedagogik kengashi faoliyatining ahamiyatini yorituvchi sharh tayyorlang.

SHarhni tayyorlashda quyidagi masalalarga e'tibor qaratilishi lozim: pedagogik kengashning ichki boshqaruv organi sifatida ta'lim muassasasida tutgan o'rni; pedagogik kengashning asosiy vazifalari; huquqlari; pedagogik kengash

faoliyatini yorituvchi hujjatlar hamda ularning saqlanishi.

### **VIII. Talabalarga beriladigan topshiriq:**

Ta’lim muassasasining metodik birlashma vazifalarini quyidagi sxema yordamida ko’rsatib bering:



## **ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR LUG'ATI**

**Akademik lisey** – o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lif olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lif standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lif beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lif muassasasi.

**Akademiya** - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lif muassasasi.

**Amaliy ishlar metodi** – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

**Anomaliya** (yunoncha "anomal") – me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

**Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish** – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

**Axloq** (lotincha "moralis" xulq-atvor) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

**Axloqiy ong** – shaxga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

**Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Aqliy tarbiya** – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Baynalminallik** (“inter” orasida, o’rtasida, aro, “natio” xalq) – o’zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

**Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo’nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to’rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

**Bashoratlash** – bo’lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonzarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

**Baho** – ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag’batlantirish maqsadida ta’sir ko’rsatish vositasi.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumatlar majmui.

**Bilim olish** – borliqni idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko’nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

**Bilish** – ob’ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni.

**Boshlang’ich ta’lim** – o’quvchilarga murakkab bo’lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o’qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko’nikma hamda malakalarini shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog’lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

**Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi** – boshlang’ich sinflar o’quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o’ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o’rganadi.

**Vatanparvarlik** (lotincha “patriotes” vatandosh, “patris” vatan, yurt) – shaxsning o’zi mansub bo’lgan millat, tug’ilib o’sgan vatani tarixidan g’ururlanishi, buguni to’g’risida qayg’urishi hamda uning porloq istiqboliga

bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

**Verbal** – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) etkazib berish, ifoda etish.

**Gnoseologiya** (yunonchadan “gnosis” bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlar, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

**Davlat ramzlari** – muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

**Davlat ta'lim standarti** – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

**Dars** – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

**Darslik** – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

**Didaktika (ta'lim nazariyasi)** – (yunoncha “didaktikos” o'rgatuvchi, “didasko” o'rganuvchi) – ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

**Didaktika tamoyillari** (lotinchadan “principium” har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

**Didaktik tashhis maqsadi** – o’quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

**Didaktik tizim** (yunoncha “systema” yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko’rsatish.

**Didaktik o’yin** – o’rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o’quvchining bilishga bo’lgan qiziqishi va faollik darajasini rag’batlantiruvchi o’quv faoliyati turi.

**Dunyoqarash** – tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.

**Jazolash** – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

**Jamoa** (lotincha “kollektivus” – yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) – bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiyligi maqsad asosida tashkil topgan guruh.

**Jamoa an’analari** – jamoa a’zolari tomonidan birdek qo’llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

**Jamoaning norasmiy tuzilmasi** – jamoa a’zolari o’rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiyligi tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o’rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

**Jamoaning rasmiy tuzilishi** – turli ko’rinishdagi jamoa faoliyatini yo’lga qo’yishning tashkiliy jihatlari.

**Jinsiy tarbiya** – o’zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o’rgatish, o’z sog’ligi uchun g’amxo’rlik qilish va mas’uliyatli bo’lishni ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

**Jismoniy tarbiya** – o’quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tiziminining muhim tarkibiy qismi.

**Joriy nazorat** – ta’lim jarayonida o’quvchilar tomonidan o’quv dasturida

belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

**Idrok** – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

**Ijtimoiy adaptasiya** (yunoncha “adapto” moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

**Ijtimoiylashuv** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar** – o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

**Ijtimoiy pedagogika** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

**Ijtimoiy reabilitasiya** (yunoncha “reabilitas” layoqat, qobiliyatni tiklash) – anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

**Izohlash** (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

**Ilmiy dunyoqarash** – uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

**Ilmiy tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

**Ilmiy qarash** (yunoncha “idea” g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) – muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

**Individ** (lotincha “individium” bo'linmas, yagona, alohida) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

**Individuallik** – shaxsning o’ziga xos xususiyatlari.

**Institut** – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo’nalishlar bo’yicha oliy va qoidaga ko’ra oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

**Iqtisodiy tarbiya** – o’quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g’ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

**Iqtisodiy ta’lim** – o’quvchilarga xo’jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g’ri tashkil etish va hokazolar) to’g’risidagi nazariy bilimlarni berishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

**YOsh xususiyatlari** – muayyan bir yosh davriga xos bo’lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko’nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta’lim bosqichi.

**“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”** – “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariiga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli** – shaxs, davlat va jamiyat, uzlucksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o’zaro hamkorligi, ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha.

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

**Davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

**Uzluksiz ta’lim** – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi.

**Fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

**Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

**Kasb-hunar kolleji** – o’quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko’nikmalarini chuqr rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

**Kategoriya** – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

**Kompensasiya** (yunoncha “ompensatio” o’rnini to’ldirish, tenglashtirish) – oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o’rnini to’ldirish yoki qayta qurish.

**Korreksiya** (yunoncha “correctio” tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirdidan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to’liq tuzatish.

**Korreksion (maxsus) pedagogika** (defektologiya, yunoncha “defectus” nuqson, kamchilik, “logos” fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o’qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari

cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

**Korreksion-pedagogik faoliyat** – yaxlit ta'lif jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

**Korreksion-tarbiyaviy ishlar** – shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

**Ko'nikma** – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

**Ko'rgazmali metodlar** – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

**Lisey (kollejda) ma'ruza** – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

**Loyihalashtirish (rejalashtirish)** – o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

**Logopediya** (yunoncha "logos" so'z, nazariya, ta'lilot, "paideia" tarbiyalash) – nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

**Magistratura** – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lif muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lif.

**Madaniyat** (lotincha "cultura" yaratish, rivojlanish, parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

**Mazmun** (ta'lif (bilim olish) mazmuni) – ta'lif jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat

usullari tizimi.

**Maktabgacha ta’lim** – bolaning sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

**Maktabgacha ta’lim pedagogikasi** – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o’rganadi.

**Maktabdan tashqari ta’lim** – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo’nalishlarda yo’lga qo’yiluvchi, bolalar hamda o’smirlarning ta’limiga bo’lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo’sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.

**Malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

**Materialni og’zaki bayon qilish metodlari** – o’quv materiali mohiyatini ozg’aki (hikoya, tushuntirish, mакtab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo’llaniluvchi usullar.

**Mafkura** (arabcha “mafcura” naqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo’nalishlarini aniqlashda etakchi o’rin tutuvchi g’oyalar tizimi.

**Mashq va o’rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari** – muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

**Ma’lumot** – ta’lim-tarbiya natijasida o’zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko’nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Ma’naviyat** (arabcha “ma’naviyat” ma’nolar majmui) – mohiyatiga ko’ra ijtimoiy

taraqqiyotga ijobjiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

**Ma'rifat** – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Ma'ruza** – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

**Menejment** – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

**Metod** (yunoncha “usul, maqsadga erishish yo'li”) – 1) tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tadqiq qilish, bilish usuli; 2) pedagogik faoliyatni tashkil qilish usuli

**Metodika** (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

**Mehnat tarbiyası** – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

**Munozara** (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

**Nazorat** (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

**Nafosat didi** – shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

**Nafosat madaniyati** – go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

**Nafosat ongi** – go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

**Nafosat tarbiyasi** (estetik tarbiya, lotincha “estezio” go’zallikni his qilaman) – o’quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish va to’g’ri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg’otish, ular tomonidan go’zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Oila** – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o’zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

**Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo’lgan shaxslar) hamda farzandlar o’rtasida turli yo’nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

**Oila tarbiyasi** – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog’lom etib tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

**Oligofreniya** (yunoncha “olygos” kam, “phren” aql) – bu natal (tug’ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

**Oliy ta’lim** – o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha xalq xo’jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.

**Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim** – jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o’quv yurtlari va ilmiytadqiqot muassasalarida aspirantura, ad’yunktura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’lim bosqichi.

**Oraliq nazorat** – o’quvchilar tomonidan o’quv materialining muayyan bob yoki bo’limlari bo’yicha o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalari darajasini

aniqlash, baholash shakli.

**Pedagogika** (yunoncha “paidagogike”, “paidagogos” bola etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan.

**Pedagogika tarixi** – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o’rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o’rganadi.

**Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari** – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo’nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob’ektiv va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

**Pedagogik mahorat** – bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o’rganadi.

**Pedagogik paradigma** (yunoncha “paradeigma” misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko’rsatmalar to’plami; ta’limning konseptual modeli.

**Pedagogik talab** – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o’quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo’lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.

**Pedagogik texnologiya** – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.

**Pedagog kadrlar tarkibi** – o’qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatuvchi to’garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

**Pedagogik mahorat** – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv,

metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

**Pedagogik talab** – turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

**Rag'batlantirish** – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Reyting** (baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

**Sinf** – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

**Surdopedagogika** (yunoncha "surdus" kar) – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarни o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'r ganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

**Suhbat** – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

**Tamoyil** (yunoncha "principium") – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

**Tarbiya mazmuni** – shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

**Tarbiya metodi** (yunoncha "metodos" yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

**Tafakkur** – ijtimoiy voqealarning ongda to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

**Tashhis** – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

**Ta’lim** – o’quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon.

**Ta’lim va tarbiya mazmuni** – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

**Ta’lim vositalari** – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komp’yuter va boshqalar) va sub’ektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

**Ta’lim jarayoni** – o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta’lim menejeri** – ta’lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

**Ta’lim metodlari** – ta’lim jarayonidaqo’llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.

**Ta’lim muassasi Ustavi** – ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

**Ta’lim konsepsiyalari** (lotinchadan “conceptio” tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzlucksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo’nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

**Ta’lim mazmuni** – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo’yicha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

**Ta’lim maqsadi** (o’qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo’nalishini belgilab beruvchi etakchi g’oya.

**Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli)** – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o’quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalgaloshirish darajasi.

**Ta’limni boshqarish** – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo’lga qo’yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o’rganadi.

**Ta’limning sinf-dars tizimi** – dars shaklida muayyan o’quvchilar guruhi bilan o’quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo’yicha olib boriladigan ta’lim jarayoni.

**Ta’lim tizimi** – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo’lida faoliyat yurituvchi barcha turdagagi ta’lim muassasalari majmui.

**Ta’lim shakli** – ta’lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

**Tizim** (mustaqil tushuncha sifatida) – o’zaro bog’langan ko’plab elementlar (tarkibiy qismlar) o’rtasidagi mustahkam birlik va o’zaro yaxlitlik.

**Tiflopedagogika** (yunoncha “typhlos” ko’r) – ko’rish qobiliyati buzilgan bolalarmi o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o’rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

**Test** – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko’rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

**Topshiriq** – o’quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko’nikmalarini shakllantirish maqsadida qo’llaniladigan usul.

**Tushuntirish** – o’quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

**To'garak** – o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki mакtabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

**Umumiy pedagogika** – mакtab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'рганади.

**Umumiy o'rta ta'lim** – o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

**Universitet** – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Usul** – muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

**Faoliyat** – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

**Fuqaro** – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lган shaxs.

**Fuqarolik** – huquqiy va axloqiy me'yordarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

**Fuqarolik tarbiyasi** – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xattiharakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va

dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Shaxsni ijtimoiylashtirish** – uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

**SHkalalash** – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

**Ekologik madaniyat** – o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

**Ekologik ong** – tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

**Ekologik madaniyat** – o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qibiliyati.

**Ekologik tarbiya** – o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarни shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

**Ekologik ta'lif** – o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'lifiy jarayon.

**Ekologik faoliyat** – ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

**Estetik tarbiya** – o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

**E'tiqod** – dunyoqarash negizada aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

**Yakuniy nazorat** – ta'lif oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun

belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

**O'z-o'zini baholash** – mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

**O'z-o'zini tarbiyalash metodlari** – o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

**O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish** – o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

**O'z-o'zini qayta tarbiyalash** – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

**O'zlashtirish** – ta'lim jarayonida ustuvor o'rinni tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

**O'rgatish** – tarbiyanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

**O'qituvchi (pedagog)** – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

**O'qish** – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

**O'quv dasturi** – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

**O'quv rejasi** – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi

me'yoriy hujjat.

**O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiylar yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ta'minlovchi manba.

**O'quvchilar jamoasi** – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiylar maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

**O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi** – o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

**O'quv qo'llanmasi** – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

**Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi** – yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Hikoya** – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

**Hisobga olish** – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

**Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

**Huquqiy ong** – muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

**Huquqiy tarbiya** – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish,

unda ijobiliy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Huquqiy ta'lim** – o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lган ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

**Huquqiy faoliyat** – huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T., 2009. – 40 b.
2. «Ta'lism to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2001. – B. 3-18.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – T., 2001. – B. 18-52.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari**

4. Barkamol avlod yili davlat dasturi. – T., 2010. – 80 b

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari**

7. A.K.Munavvarov. Pedagogik qobiliyat va mahorat. T “O'qituvchi”, 1998 y.
8. Yu.A.Axrarov. Pedagogik mahorat (ma'ruza matni), Samarqand 2001y.
9. N.N. Azizzxo'jaeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. TDPU 2003 y.
10. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyoti. T. Fan. 2005 yil.

### **V. Darsliklar.**

#### **Asosiy manbalar:**

1. O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida/ Karimov I.A 2011yil “O'zbekiston” nashriyoti. 440b
2. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
3. Kann-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo. – Moskva: Pedagogika, 1990.

4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati / Talabalar uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy ko'tubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A.Madiyarova va boshq. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.- 425 b.
7. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
8. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.

### **Qo'shimcha manbalar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, -2008. – 176 b.
2. Aniseeva N.P. Jamoadagi ruhiy muhit. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
3. Kuxarev N.V. Na puti k professionalnomu sovershenstvu. – Moskva: Prosveschenie, 1990.
4. Minovarov SH. Teatr pedagogikasi elementlarini egallaylik // Xalk ta'limi j. – Toshkent: 1999. № 4.
5. Ochilov M. Muallim qalb me'mori / Saylanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
6. Pirmuhamedova M. Pedagogik mahorat asoslari / Ma'ruza matni. – TDTU, Toshkent: 2001.

### **UMUMIY PEDAGOGIKA FANIDAN HORIJIY ADABIYOTLAR.**

1. Bespal'ko V.P. - Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. - M.,1995.
2. Bespal'ko V.P. - Personifistirovannoe obrazovanie//Pedagogika. - 1998.
3. Bogolyubov V.I. - Pedagogicheskaya texnologiya: evolyustiya ponyatiya.
4. Bordovskiy G.A., Izvozchikov V.A. - Novie texnologii obuchenii: voprosy terminologii//Pedagogika №5 1993g. str. 12-16.
5. Avanesov V.S. - Pedagogicheskoe testirovanie - M., 1990.
6. Bragina G.B. - Mastrestvo uchitelya na uroke - M., 1992 g.

7. Agapova O., Krivosheev A., Ushakov A. - Proetno-sozidatelnaya model obucheniya// Alma Mater (Vestnik vysshey shkoly). - 1994., № 1 s.18-22.
8. Amonashvili Sh.A. - Lichnostno-gumanitarnaya osnova pedagogicheskogo prostessa - Minsk, 1990.
9. Buxvalov V.A. - Metodiki i texnologii obrazovaniya. - g. Riga, 1994 g.
10. Vishtinestkiy E.I. - Voprosy primeneniya informastionnyx texnologiy sfere obrazovaniya//Informastionnye texnologii. - 1998 0 № 2 - S. 32-36.
11. Vozrasnaya i pedagogicheskaya psixologiya// Pod redakstiey M.V. Gamezo, M., 1990.
12. Voloshina T.Yu. - Metodika ispolzovaniya multimediyuix texnologiy v uchebno-metodicheskoy deyatelnosti prepodavatelya vuza. Diss.k.p.n. - SPb., 1999, - 237 s.
13. Gessen SI. Osnovy pedagogiki. - M., 1995.
14. Gin A.A. - Priemy pedagogicheskoy texniki. - M.: Vitapress, 1999. s. 88.
15. Girkin I.V. - Novye pdxody k organizastii uchebnogo prostessa s ispolzovaniem sovremennyx kompyuternyx texnologiy// Informastionnye texnologii. - 1998. № 6, S. 44-47.
16. Granistkaya A.S. - Nauchit dumat i deystvovat. - M., 1991 g.
17. Gusinskiy E.N. - Obrazovanie lichnosti. - M., 1994.
18. Davyidov V. V, - O ponyatii razvivayushchego obucheniya// Pedagogika. № 1 1995 g.
19. Davyidov V.V. - Razvivayushhee obuchenie. - M., 1996.
20. Dyachenko V.K. - Sotrudnichestvo v obuchenii.
21. Yanushkevich F. - Texnologiya obucheniya v sisteme vysshego obrazovaniya. - M., 1986 g.
22. Obuchenie i razvitiie// Pod redakstiey L.V.Zankova, M.

## Mundarija

1. Kirish.....	3
2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Pedagoglik kasbi va uning vazifalari.....	
3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.....	
4. Tarbiya maqsadi va vazifalari.....	
5. Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida Ta’lim paradigmalari. Ta’lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida. Ta’lim tamoyillari	
6. Ta’lim metodlari va vositalari. Ta’limni tashxis qilish...	
7. Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli	
8. O’quvchilar jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli	
9. O’quvchilarning yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. Estetik va jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi	
10. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi (ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim muassasasi menejmenti)	
11. Maxsus (korreksion pedagogika)	

Laboratoriya mashg’ulotlarining texnologik loyihalari

12. O’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi mazmuni
13. Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari.
14. Tarbiyaning umumiy metodlari
15. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi (ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim muassasasi menejmenti)
16. Asosiy pedagogik tushunchalar lug’ati
17. Adabiyotlar ro’yxati